

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

KREDIT-IQTISOD FAKULTETI

“ BANK HISOBI VA AUDIT ” KAFEDRASI

XOLOV ULUG‘BEK ABDURAXMON O‘G‘LI

**KICHIK BIZNESNI KREDITLASHNING CHET EL TAJRIBASI
VA UNDAN O‘ZBEKISTON AMALIYOTIDA FOYDALANISH
IMKONIYATLARI**

5230700 – “Bank ishi” bakalavriatta‘lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISH

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”	“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”
Fakultet dekani	“Bank hisobi va audit” kafedراسي mudiri
dots., i.f.n. Saidov R.	i.f.n. Umarov Z.
(imzosi) ilmiy unvoni, darajasi, F.I.SH	(imzosi) ilmiy unvoni, darajasi, F.I.SH
“ ” 2017 y.	“ ” 2017 y.

Bitiruvchi: 5230700- “Bank ishi” -

ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Xolov Ulug‘bek Abduraxmon o‘g‘li

Ilmiy rahbar:

NavruzovaK.N.

Toshkent-2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1- BOB. KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASHNING TASHKILY VA HUQUQIY ASOSLARI.....	7
1.1. Kichikbiznesning mohiyati va uning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi' rni.....	7
1.2. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning huquqiy asoslari.....	14
2- BOB. KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASHNING CHETEL TAJRIBASI VA RESPUBLIKA BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI KREDITLASH AMALIYOTI.....	30
2.1. Kichik biznes faoliyatini tashkil etishning xorij tajribasi.....	30
2.2. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning chet el tajribasi.....	36
2.3. Mamlakatimiz tijoratbanklaritomonidankichikbiznesvaxususiytadbirkorliknikreditlashamaliyoti.....	41
3-BOB KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASHNING CHET EL TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTON BANK AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMONIYATLARI.....	55
3.1 Kichik biznes subyektlarini kreditlash bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	55
3.2. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning chet el tajribasidan O'zbekiston bank amaliyotida foydalanish imoniyatlari.....	59
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	71
ILOVA.....	75

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish-jamiyatni barqarorlashtirish va uning iqtiso-diy farovonligini

ta'minlash garovidir. Kichik biznesni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy bo'g'in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Iqtisodiyotda ro'y berayotgan turli ijobiy o'zgarishlar ko'p jihatdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yunalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq tadbirlar, tizimli ravishda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida mazkur sohaning Yalpi ichki mahsulotni yaratishdagi ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Yaratilayotgan yangi ish o'rinlarining katta qismi ham aynan shu sohaga to'g'ri kelmoqda. Hozirgi kunda kichik biznes subyektlari tomonidan mamlakatimiz YAIMning 56,9 foizi yaratilmoqda, iqtisodiyotdagi ish bilan band aholining 78 foizi mazkur sohada faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-oktyabr 2016-yildagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni xususiy mulkni xuquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart - sharoitlar yaratishga va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan.

Xususan, Farmonda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga aralashuvni tubdan qisqartish, huquq buzarlilarning barvaqt oldi olinishini ta'minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarlilarga yo'l qo'yilmaslik"¹ masalalarini

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 oktyabr 2016 yildagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni.

eng muhim ustuvor yoʻnalish hamda davlat organlarining birinchi darajali vazifasi sifatida belgilangan. Shu bilan birga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 7 fevral 2017 yildagi 4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida ham mazkur tarmoqni yanada rivojlantirish borasida istiqbolli rejalar belgilanganligini koʻrish mumkin. Xususan, Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yoʻnalishlari sifatida “milliy iqtisodiyotning mutanosibliigi va barqarorligini taʼminlash, uning tarkibida sanoat, xizmat koʻrsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini koʻpaytirish”² koʻzda tutilgan.

Biroq, bugungi kunda jahon miqyosida raqobat va isteʼmolchilar talabining kuchayishi, tarmoqlar ishlab chiqarishidagi diversifikatsiya-lashuv va ixtisoslashuvning chuqurlashuvi jarayonlari taʼsiri ostida kichik biznes faoliyatining oʻzgarishi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda kichik biznesning moliyaviy holatini qoʻllab-quvvatlash va mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani bajarishda banklarining roli beqiyosdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida tijorat banklari kichik biznesni kreditlash, lizing berish, ularning hisob kitob schotlarini yuritish, turli xildagi bank xizmatlarini koʻrsatish orqali koʻmaklashadi.

Tijorat banklarining kreditlari kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, Oʻzbekiston Respublikasi hukumati va Markaziy banki kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirishga alohida eʼtibor qaratmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 yanvardagi PQ-2746-sonli “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrocreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorida kichik biznes subyektlarini mikrocreditlashni yanada rivojlantirish boʻyicha aniq chora-tadbirlar belgilab berilgan.

²Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi 4947-sonli Farmoni.

Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligiga qaramay kichik biznesni kreditlash tizimida kamchiliklar yuzaga kelmoqda, muammolar mavjudligi namoyon bo'lmoqda. Bu muammolarni o'rganish va ularni xal qilish hozirgi dolzarb masalalardandir. Kreditlash orqali kichik biznes faoliyatining samaradorligini oshirish uchun kichik biznes subyektlarini kreditlashning xorijiy tajribasini o'rganish va O'zbekiston bank amaliyotiga tadbiriq etish ham ijobiy natija beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, davlatimiz iqtisodiyoti uchun juda muhim bo'lgan kichik biznes va tadbirkorlik sektorini takomillashtirish, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash sohasidagi muammolarni o'rganish, kreditlash orqali kichik korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, bu borada chet el tajribasini o'rganib, respublikamiz tijorat banklari amaliyotiga tadbiriq etish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu esa bitiruv malakaviy ish uchun tanlangan mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning predmeti. Tijorat banklari tomonidan kichik biznesni kreditlash bo'yicha iqtisodiy munosabatlar bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning obyekti. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi, ayrim chet davlatlarning kichik biznesni kreditlash sohasidagi ma'lumotlari ishning obyekti sifatida asos qilib olingan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi tijorat banklari tomonidan kichik biznesni kreditlashning chet el va milliy bank tizimi tajribasini o'rganish va tahlil qilish asosida amaliy takliflarni ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagicha vazifalarbelgilab olindi:

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmuni va uning iqtisodiyotda tutgan o'rnini yoritib berish;
- tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlashning huquqiy asoslarini o'rganish;
- kichik biznes subyektlarini kreditlashning xorij tajribasini o'rganish;

- mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash amaliyoti bilan tanishish;

- kichik biznes subyektlarini kreditlashning chet el tajribasidan O'zbekiston bank amaliyotida foydalanish imoniyatlarini belgilash.

Tadqiqotning nazariy - amaliy ahamiyati. Olingan natijalarning nazariy ahamiyati shundaki, ulardan kollej va oliy o'quv yurtlarida "Bank ishi" fanlarini o'rganishda qo'llanilishi mumkin, malakaviy ishning amaliy ahamiyati ulardan tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlashni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi tarkiban kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning 1- bobida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlashning tashkiliy va huquqiy asoslari o'z ifodasini topgan.

Bitiruv malakaviy ishning 2-bobida kichik biznes subyektlarini tashkil etish va kreditlashning xorij tajribasi va respublika banklari tomonidan kichik biznesni kreditlash amaliyoti o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishning 3-bobi kichik biznes subyektlarini kreditlashning chet el tajribasidan O'zbekiston bank amaliyotida foydalanish imoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishning xulosa qismida xulosalar va ishlab chiqilgan takliflarning qisqa mazmuni o'z ifodasini topgan.

Bitiruv malakaviy ishning xajmi betdan iborat bo'lib, 6 ta rasm va 8 ta jadvalni o'z ichiga oladi.

1- BOB. KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASHNING TASHKILY VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Kichik biznesning mohiyati va uning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirisdagi o'рни

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida mulkchilik shakllarini har tomonlama kengaytirish asosida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning boisi shundaki, kichik biznes yirik iqtisodiyot safarbar qilishi qiyin bo'lgan, xususiy uy xo'jaliklariga bo'linib ketgan moliya, xom ashyo va mehnat resurslarini ishga sola oladi. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotni izchil rivojlantirishning eng muxim omili, jamiyatimiz ijtimoiy va siyosiy barqarorligining kafolati, mamlakatimizni taraqqiyot yo'lidan olg'a etaklaydigan faol xarakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Kichik biznes korxonalari kam investitsiya jalb qilgani holda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, yangi ish o'rinlarini yaratib aholi bandligini oshirishga ko'maklashishga qodir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Xususiy mulk va tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya hilish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi 2016-yilda 32 mingtaga yaqin yoki 2015-yilga nisbatan 18 foizga ko'p kichik biznes subyektlari tashkil qilinishiga turtki bo'ldi"³.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rnini hisobga olib, hukumatimiz tomonidan aynan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va uni qo'llab quvvatlashga aloxida e'tibor qaratib kelmoqda. Natijada kichik biznes korxonalari kam investitsiya jalb qilgani holda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, yangi ish o'rinlarini yaratib aholi bandligini oshirishga qodir ekanligi, uning YAIM dagi ulushi toboro ortib borayotganligi, iqtisodiyotning barcha sohalariga jadal kirib borayotganligi ko'z o'ngimizda namoyon bo'lmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati va uning mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rnini chuqurroq o'rganishdan avval kichik biznes, tadbirkorlik

³Mirziyoyev Sh. M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak." – T.: "O'zbekiston" 2017 yil, 104 - bet.

faoliyati kabi tushunchalarning mazmuni nimadan iborat ekanligi, uning qanday turlari mavjudligini ko'rib chiqamiz.

Hozirgi kunda qator olimlar kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga turli hil ta'riflar berib kelmoqdalar. Ularning bir nechtasini keltirib o'tamiz. Ba'zi olimlar tadbirkorlik va biznesni bir so'zning sinonimi sifatida tushunadilar, ba'zilar ularni aloxida tushuncha ekanligini e'tirof etadilar. Hususan, iqtisodchi olim M.Rasulovning "Bozor iqtisodiyoti asoslari" kitobida "Tadbirkorlik mohiyati, tadbirkorlik va biznes tushunchalari bir xil,"- deb ta'kidlangan. O'zbekistonlik yana bir iqtisodchi olim S. G'ulomov "Tadbirkorlik va kichik biznes" nomli o'quv qo'llanmasida quyidagicha ta'rif bergan: "Tadbirkor va biznesmen kabi tushunchalar ularning iqtisodiy faoliyat soxalari ko'rilayotganda ma'nodosh deb hisoblanmaydi, tadbirkorlik faoliyati biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi va uning turli soxalarida amalga oshiriladi."⁴ Bu ta'rifga ko'ra tadbirkorlik faoliyati biznes tushunchasidan torroqdir, ya'ni uning bir elementi sifatida e'tirof etilmoqda.

Tadbirkorlik va biznes tushunchasi mazmunan bir-biriga yaqin. U kishilarning ishbilarmonlik faoliyatidan kelib chiqqan munosabat bo'lib, biron-bir unumli ish, faoliyat bilan bog'liqlikni anglatadi. "Biznes inglizcha "business" so'zidan olingan bo'lib, umumiy iqtisodiy atama sifatida xo'jalik subyekti iqtisodiy qiziqishlaridan iborat faoliyat doirasini ifodalaydi va ishlab chiqarishni tashkil qilishdan iborat foydali mahsulotlar yaratish hamda xizmatlar ko'rsatish tizimidan iboratdir."⁵

Demak, biznesmen ham inglizchadan olingan bo'lib, biznes-ish, men-odam ma'nosini bildiradi, ya'ni biznesmen ishbilarmon yoki ishni yurituvchi shaxs sifatida e'tirof etiladi. Biznes tushunchasi qachon, kim tomonidan kiritilgani, qay vaziyatda dastlab ishlatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarda deyarli uchramaydi. Lekin, biznes so'zining ingliz tilidan olinganligi va asrlardagi sanoat inqilobi, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyot aynan Buyuk Britaniyada yuz berganini hisobga olib, bu so'zning kelib chiqishi Buyuk Britaniya bilan bog'liq degan taxminlar mavjud. Shunday qilib biznes - bu foyda yoki daromad olish bilan

⁴G'ulomov G'. Tadbirkorlik va kichik biznes.-Toshkent.: Sharq .2002y 9-bet.

⁵G'ulomov S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish. -Toshkent.: Fan va texnologiyalar. 2005y 7-bet.

bog‘liq bo‘lgan unumli faoliyat yoki shaxsiy daromad olish topish borasidagi jarayonlar to‘plamidir. Biznes faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar biznesmenlar yoki ishbilarmon tadbirkorlar deb yuritiladi.

Tadbirkorlik faoliyatiga O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunda ham ta‘rif berilgan bo‘lib, ushbu qonunga asosan, “Tadbirkorlik-fuqarolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo‘naltirilgan mustaqil, tashabbuskor faoliyati bo‘lib, u fuqaroning o‘z nomidan, o‘zining tavakkalchiligi bilan hamda o‘zining yoki yuridik shaxsning mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladi.”⁶ Bu ta‘rif yuqoridagi ta‘riflarga nisbatan kengroq bo‘lib, fuqarolarning o‘z nomidan yoki korxonalar nomidan foyda olishga yo‘naltirilgan tashabbuskor faoliyati deb e‘tirof etilgan.

Shunday qilib, biznes va tadbirkorlik o‘zaro bog‘liq bir tushuncha bo‘lib, tadbirkorlik-bu biznesning bir shakli sifatida iste‘molchilarning tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish asosida foyda olishga yo‘naltirilgan riskka tortilgan tashkiliy, iqtisodiy faoliyatdir.

Kichik biznes va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur tezkorlikni ta‘minlab, ishlab chiqarishdagi chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan kooperatsiyani yaratadi, bularsiz yuksak samaradorlikni ta‘minlab bo‘lmaydi;

- bozor uchun zarur bo‘lgan raqobatchilik muhitini yaratadi hamda o‘zgarib turadigan bozor talabiga moslab tezda ishlab chiqarish turini o‘zgartirib olish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi;

- iste‘molchilik sohasida yuzaga keladigan bo‘shliqni tezda to‘ldirishga qodir bo‘lib, eng zamonaviy mashina uskunalari va texnologiyadan foydalanib sarflangan sarmoyaning o‘rnini juda tez qoplay oladi.

Jamiyatda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bir qator ustunlik va avzalliklarga ega. Bu avzalliklar quyidagilardir:

⁶O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik to‘g‘risidagi”gi qonuni.

- Tadbirkorlikni va kichik biznesni rivojlantirish asosida mulkdorlar soni oʻsadi, demak, jamiyatda oʻrta sinf vujudga keladi, bu esa oʻz navbatida jamiyatda iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni taʼminlashga yordam beradi.

- Iqtisodiy faol aholining oʻsishi, fuqorolar daromadlarini oshishiga olib keladi hamda turli ijtimoiy guruhlar orasidagi farqni kamaytiradi.

- Kichik biznes – harakatchan va egiluvchan jadalli ish kuniga moslashgan shaxslar uchun oʻzini sinash uchun dastlabki maktab vazifasini oʻtaydi.

- Yangi ish oʻrinlari nisbatan kam harajat bilan vujudga keladi. Maʼlumoti va mehnat tajribasi yuqori darajada boʻlmagan shaxslar shu erda ish topadi, qaysiki, oʻz malakasini ish oʻrinlarida oshiradilar.

- Toʻlaqonli raqobat muhiti paydo boʻlishi orqali monopol ishlab chiqarish barham topadi.

- Kuchli raqobat sharoitida “yashab qolish” uchun kichik korxonalar koʻproq risk qilib, yangi texnologiyalarni qoʻllab, turli loyihalarni amalga oshiradilar.

- Iqtisodiyotning turli tarmoqlari oʻrtasida aloqalar yaxshilanadi.

Aholi bandligini taʼminlashda ham kichik biznesning oʻrni oʻta muhim, chunki kichik korxonalarda ish oʻrinlari nisbatan kam xarajatlar bilan barpo etiladi. Respublika faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarda band boʻlgan aholi soni ham oshib bormoqda. “Agar raqamlarga nazar solsak, mustaqillikka qadar Oʻzbekistonda umuman mavjud boʻlmagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining Yalpi ichki mahsulotimizda ulushi 56,9 foizga koʻtarildi, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiy sonining 78 foizigacha oshdi va ular mamlakatimizning gullab-yashnashi uchun munosib hissa qoʻshmoqda. Ayni vaqtda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 45 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushiga toʻgʻri keladi”⁷

Mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanayotgan korxonalar soni, yaratilayotgan ish oʻrinlari oshib

⁷Mirziyoyev Sh. M. “Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak.” – T.: “Oʻzbekiston” 2017 yil, 104 - bet..

borishi bilan birga, ular tomonidan ishlab chiqarayotgan mahsulotlar ham, YAIM dagi ulushi ham ortib bormoqda.

1- jadval


Kichik biznes va tadbirkorlikning YAIM dagi ulushining oshib borishi (yil oxiriga, foizlarda)⁸

Ko'rsatkichlar	2005yil	2010 yil	2015 yil	2016 yil
YAIM	100	100	100	100
Kichik biznes va tadbirkorlikning YAIM dagi ulushi	38.2	52.2	56.6	56.9

1-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, 2005-2016 yillar ichida yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 18.7%ga oshdi. Hukumatimiz tomonidan 2010 yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 52 foizga ko'tarilishi belgilab berilgan edi. Ushbu vazifa ortig'i bilan bajarilib, 2010 yilda bu ko'rsatkich 52.5 foizni tashkil etdi. 2015 - 2016 yillarda ham ushbu ko'rsatkich yildan-yilga o'sib borgani kuzatildi. Bunday o'sish hukumatimiz tomonidan kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasidir.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'llanuvchi subyektlarning 2011-2016 yillarda YAIMdagi ulushi haqidagi ma'lumotlarni 2011-2016 yillar davomida o'zgarishini quyidagi 1-rasm orqali ko'ramiz.


⁸www.cbu.uz.asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



1-rasm. Kichik biznes va tadbirkorlikning YAIM dagi ulushining oshib borishi (yil oxiriga, foizlarda)⁹

Kichik biznesning YAIM dagi ulushi 2011-2016 yillarda yanada oshib borib, 2017 yil boshiga kichik biznesning mamlakat Yalpi ichki mahsulotidagi hissasi 56,9% ga yetdi. 2016 yilning o'zida 32 mingtaga yaqin yoki 2015-yilga nisbatan 18 foizga ko'p kichik biznes subyektlari tashkil qilindi. Bunday natijalar birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanayotgani samarasidir.

Hukumatimiz tomonidan kichik biznesni yanada rag'batlantirish uchun soliq stavkalari ham tushirib borilmoqda.



2-rasm. Kichik biznes subyektlari tomonidan to'lanadigan yagona soliq stakasi (%da)¹⁰

⁹ www.cbu.uz.asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

¹⁰ www.cbu.uz.asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 11 martdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko‘paytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-1501-sonli Qaroriga muvofiq, 2012 yilning 1 yanvaridan sanoat sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga kamaytirilgan bo‘lib, u hozirgi kungacha o‘zgarmagan.

2-rasmdan ko‘rib turganimizdek, kichik korxonalar tomonidan to‘lanadigan yagona soliq stavkasi 1996-2016 yillarda 5.3 barobar kamaytirilgan. 1996 yilda soliq stavkasi 38% bo‘lgan bo‘lsa, 2000 yilda 31%ga tushirilgan. Keyingi 10 yilda esa yagona soliq stavkasi bosqichma-bosqich pasaytirilib borib, 2010 yilda 7%ga, 2011 yilda esa yagona soliq stavkasi 1%ga kamaytirilib, 6%ni tashkil etgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi N PF-4354 Farmoniga asosan esa 2012 yilning 1 yanvaridan sanoat sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga kamaytiriladi. Bu stavka hozirgi kungacha o‘zgarmagan. 2017 yilda ham kichik biznes korxonalarining yagona soliq to‘lovi stavkasi 5 foiz darajasida saqlab qolindi. Bu kichik biznes korxonalarining yanada rivojlanishi, ularning o‘z moliyaviy holatlarini mustahkamlab olishlariga yordam beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanayotgan iqtisodiyotini xarakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida yuzaga chikadigan - kichik biznes nafaqat iqtisodiyotdagi ma‘lum bir bo‘shliqlarni to‘ldiradi, balki uni diversifikatsiya qilish va barkaror sur‘atlar bilan rivojlanishini ta‘minlashda o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Chunki tadbirkor o‘z faoliyati mobaynida nafaqat shaxsiy manfaat (foyda olish)ni ko‘zlab ish qiladi, balki faoliyati orqali aholi bandligini ta‘minlash, iqtisodiyotni yangi boskichlarga ko‘tarish kabi mamlakatning ijtimoiy masalalarini hal qilishda ko‘maklashadi, bundan tashqari, soliqlar to‘lash orqali davlat byudjetiga o‘z hissasini qo‘shadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o‘tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Kichik biznes faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me‘yoriy hujjatlar to‘plamining yaratilganligi, tadbirkorlarga ko‘maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar tashkil etilganligi shular jumlasiga kiradi. Umumiy qilib aytganda, O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalar va tashkilotlari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda.

Mamlakatimizda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar natijalari xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida yuqori baholanib, o‘tgan yilning oktyabr oyida Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan e‘lon qilingan “Biznesni yuritish 2017: hamma uchun teng imkoniyatlar” hisobotida qulay ishbilarmonlik muhiti parametrlari bo‘yicha mamlakatimiz dunyoning 189 mamlakati orasida 87-o‘rinni egallab turgani sa‘y-harakatlar ko‘lami va mahsuli dunyo jamoatchiligi tomonidan ham e‘tirof etilayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, O‘zbekiston so‘nggi besh yilda “Yangi biznesni qo‘llab-quvvatlash” deb ataladigan mezon bo‘yicha jahonda 90-o‘rindan 25-o‘ringa, “Kichik biznes subyektlariga kredit berish” deb nomlanadigan ko‘rsatkich bo‘yicha 154-o‘rindan 44-o‘ringa ko‘tarildi. Mamlakatimiz ayni paytda tuzilgan shartnomalar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha 38-o‘rinni, iqtisodiy nochor korxonalariga nisbatan ko‘llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo‘yicha 77-o‘rinni egallab turibdi.

1.2. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning huquqiy asoslari

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo‘lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini

o'shishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi. Mamlakatimizda kichik biznesni kreditlashning huquqiy asoslari ham shakllandi va takomillashtirib borilmoqda.

Bugungi kunda kichik biznesni kreditlashning huquqiy va me'yoriy asoslari quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida" gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari;
- Tegishli vazirliklarning qarorlari;
- Markaziy Bankning me'yoriy hujjatlari;
- Tijorat banklarining kreditlash tartiblari.

Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashga oid farmon va qarorlarning ijrosini ta'minlash borasida banklarimiz juda katta miqyosda ishlarni amalga oshirmoqda. Banklar tomonidan kredit mablag'lari iqtisodiyotning real sektorlariga, shu jumladan aholi uchun zarur bo'lgan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaradigan ixcham mini texnologiyalarni sotib olish hamda xizmat ko'rsatishni rivojlantirishga ajratilmoqda.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining respublika iqtisodiyotidagi o'ta muhim hamda salmoqli hissasi bilan alohida o'rin egallaydi. Mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy kullab-kuvvatlash borasida bank tizimining o'rni aloxidadir. Markaziy bank mamlakatimiz mustakilligining dastlabki yillaridanoq, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga bank xizmati ko'rsatish, ularga bank kreditlari berishning soddalashtirilgan tartib-qoidalari amaliyotini joriy etishni boshlagan edi. Markaziy bank o'zining bu boradagi siyosatini takomillashtira borib, 2000 yil fevral oyida yakka tartibdagi tadbirkorlar va kichik biznes subyektlariga tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar berish tartiblari

to'g'risidagi Nizomlarini amalga kiritdi. Ushbu Nizomlarga ko'ra, tijorat banklari tomonidan beriladigan mikro kreditlar uchun hisoblanadigan foizlar darajasi Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasidan oshib ketishi mumkin emasligi belgilangan.

2000 yil 21 martdagi "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-2564 ga muvofiq tijorat banklari o'z foydasining 25 foizga qadar miqdorini ajratish yo'li bilan banklarda ishlab chiqarish mikrofirmalarini, kichik korxonalarini, dehqon va fermer xo'jaliklarini, yuqori texnologik va innovatsiya loyihalarini Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi tashkil etildi. Tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar berishdan oladigan daromadlari ana shu mablag'lar mazkur Jamg'armaning resurslarini ko'paytirishga maqsadli yo'lantirilgan taqdirda 5 yil muddatga daromad solig'idan ozod qilindi. Farmon ijrosini ta'minlash uchun 2000 yil 19 mayda "Tijorat banklarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Vazirlar mahkamasi 195-son qarori asosida nizomlar ishlab chiqildi. Bu nizomlarga ko'ra jamg'arma mablag'lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash bo'yicha kredit berilgan kundagi belgilangan stavkasining 50 % idan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilandi.

Vazirlar Mahkamasining "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki faoliyatini tashkil etish va uning moddiy texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006 yil 6 may 78-sonli Qaroriga ko'ra, Mikrokreditbankda foydalanish yo'nalishlariga ko'ra dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun mikro kreditlar boshlang'ich sarmoyasini shakllantirish uchun va biznesni rivojlantirishga va aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladi.

Boshlang'ich sarmoyasini shakllantirish uchun mikro kredit yiliga 3 foiz stavka bo'yicha 18 oy muddatgacha:

- eng kam oylik ish xaqining 50 baravarigacha miqdorda - yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik subyektlari uchun;
- eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha miqdorda mikrofirmalar va dexqon xo'jaliklari uchun (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan);
- eng kam oylik ish xaqining 200 baravarigacha miqdorda - fermer xo'jaliklari uchun beriladi.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va korxonalarni tarkibiy o'zgartirish jamg'armasi 2005 yil 4 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 185-sonli Qarorining «O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi huzuridagi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va korxonalarni tarkibiy o'zgartirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida»gi Nizomiga asosan tashkil etilgan. Mazkur jamg'arma bilan Bosh bank o'rtasida tuziladigan bosh kelishuv kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish Respublika muvofiqlashtiruvchi Kengashi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Kichik biznes subyektlarini moliyalashda yana bir manba bu xorijiy kredit liniyalari hisoblanadi. Xorijiy kredit liniyalari hisobiga investitsiya loyihalarini mablag' bilan ta'minlash tadbirkorlik subyekti tanloviga ko'ra namunaviy yoki yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha amalga oshiriladi. Namunaviy loyihalar bo'yicha - «O'zinvest-loyiha» respublika injiniring kompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi va tijorat banklari tomonidan, yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha esa «O'zinvestloyiha» kompaniyasi va tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. SHu bilan birga xorijiy kreditlarning yana bir turi bu ETTBning mikrokreditlaridir. («Evropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan mikrokredit berish dasturini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 10.09.2001 yildagi 367-son qaroru.) Ushbu qarorga ko'ra, ETTBning mikrokredit berish dasturi doirasini kengaytirish va kichik tadbirkorlik subyektlarini mablag' bilan ta'minlashga 20 mln AQSH dollari miqdorida kredit liniyasi ochiladi va

mikrokreditlar bir qarz oluvchiga 5000 AQSH dollariga teng miqdoridan ortiq bo‘lmagan miqdorda beriladi yoki 2002 yildagi o‘zgarishlardan keyin («Evropa tiklanish va taraqqiyot bankining kichik biznesni to‘liq ko‘lamda rivojlantirish bo‘yicha dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 06.06.2002 yildagi 201-son qaroru.) kreditlar bita qarz oluvchiga 100 ming AQSH dollarigacha miqdorda yoki shunga teng miqdorda O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida beriladi, mikrokreditlar esa 10 ming AQSH dollarigacha miqdorda yoki shunga teng miqdorda milliy valyutada beriladi.

2011 yilning “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb e‘lon qilinganligi munosabati bilan, banklarda tashkil etilgan Imtiyozli kreditlash maxsus jamg‘armasi hajmini oshirish borasida tegishli choralar ko‘rildi. Xususan, 2011 yil 11 martdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini kreditlash hajmlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1501 va 2011 yil 19 martdagi Vazirlar Mahkamasining “Tijorat anklarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2000 yil 19 maydagi 195 – son Qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” gi Vazirlar Mahkamasining 79 –son qarori qabul qilinib, ularga muvofiq:

- Imtiyozli kredit berish maxsus jamg‘armasi resurslari hisobidan kredit berishdan olinadigan tijorat banklarining daromadlari bo‘shaydigan mablag‘larni mazkur jamg‘armaning resurs bazasini oshirishga maqsadli yo‘naltirish sharti bilan yuridik shaxslar foydasidan to‘lanadigan soliqdan 2011 yil 1 apreldan, 2016 yilning 1 yanvarigacha ozod etildi;

- jamg‘arma mablag‘ari ustuvor ravishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini, uzoq va borish qiyin bo‘lgan tumanlarda, shuningdek, mehnat resurslari ortiqcha bo‘lgan tumanlar va shaharlarda joylashgan ishlab chiqarish mikrofirmalarini, kichik korxonalarni, dehqon va fermer xo‘jaliklarini moliyalashtirish uchun ajratilishi belgilandi;

- kichik biznesning barcha subektlari uchun imtiyozli resurslardan foydalanish imkoniyatini yaratish maqsadida jamg'arma hisobidan kreditlar eng kam oylik ish haqining 2000 baravaridan ortiq bo'lmagan summada ajratilishi belgilandi.

2001 yil 10 sentyabrdagi "Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlash, moddiy-texnik ta'minlash, ularga bojxona imtiyozlarini berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

Vazirlar Mahkamasining 366-son qaroriga asosan:

- Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kredit resurslarining kamida 50 % i har yili dehqon (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan) va fermer xo'jaliklarining dastlabki sarmoyasini shakllantirish uchun tijorat banklarida maqsadli kredit liniyalari ochishga yo'naltirilishi;

- mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan) va fermer xo'jaliklariga dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun kreditlar ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin 6 oydan ko'p bo'lmagan davrda kredit olish uchun tegishli buyurtmanomalar bergan faqat yangidan ochilgan korxonalarga berilishi.

Vazirlar Mahkamasining ushbu qaroriga muvofiq nizom ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik esa uning o'rniga "Tijorat banklari tomonidan budjetdan tashqari jamg'armalar va Tadbirkorbank kredit liniyalari hisobidan mikrokreditlar berish tartibi to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 1548, 2006 yil 21 fevral) tasdiqlandi.

Mikromoliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishi hamda bu borada me'yoriy-huquqiy hujjatlarning takomillashtirilishi asosan 2006 yildan boshlab tez sur'atlarda amalga oshirila boshandi. Xususan, 2006 yil 5 maydagi "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3750 ga muvofiq sobiq ATB "Tadbirkorbank" negizida "Mikrokreditbank" ATB tashkil etildi va uning asosiy vazifalari etib:

- tadbirkorlik subektlariga boshlang'ich sarmoyasini shakllantirish uchun imtiyozli mikro kreditlar berish;

- faoliyatini kengaytirish va aylanma mablag'arini to'ldirish uchun imtiyozli mikro kreditlar berish;

- tadbirkorlik subektlari tomonidan korxonalarini texnik hamda texnologik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish uchun zamonaviy uskunalar va mini-texnologiyalarni sotib olishlari uchun mikrolizing xizmatlarini ko'rsatish;

- keng ko'lamda bank va konsalting xizmatlarini ko'rsatish, ayniqsa qishloq joylarda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlariga xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ta'minlaydigan filiallar va mini-banklar tizimi orqali moliyaviy infratuzilmani yanada rivojlantirish belgilandi.

Hozirda turli aholi punktlarida "Mikrokreditbank"ning 80 dan ortiq filiali, 289 ta mini-banki va ko'plab agentliklari ishlab turibdi. Bugungi kunda bank 200 mingdan ortiq mijozga xizmat qilmoqda YUqorida keltirilgan farmonni bajarish yuzasidan 2006 yil 6 mayda "Mikrokreditbank" ATB faoliyatini tashkil etish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 78-son qaror chiqarildi va unga muvofiq "Mikrokreditlar berish va mikrolizing xizmtalarini ko'rsatish tartibi to'g'risida" Nizom tasdiqlandi. Bu nizomga ko'ra "Mikrokreditbank" tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning quyidagi 3 yo'nalishda amalga oshirish tartibi belgilangan (2008 yil 10noyabr PF-4051-son Farmoniga muvofiq kiritilgan o'zgartirishlar bo'yicha):

- Boshlang'ich sarmoyani shakllantirish uchun mikro kredit yiliga 3 % stavka bo'yicha, 18 oy muddatgacha:

- eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik subektlari uchun;

-eng kamoylik ish haqining 100 baravarigacha miqdorda mikrofirmalar va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari uchun;

-eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha miqdorda fermer xo‘jaliklari uchun beriladi.

- Biznesni kengaytirishga va aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun mikrokreditlar kichik tadbirkorlik subektlariga (mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo‘jaliklariga) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking qayta moliyalashtirish stavkasining 50 % idan yuqori bo‘magan foiz stavkasi bo‘yicha, 24 oy muddatgacha, eng kam oylik ish haqining 500 baravarigacha miqdorda beriladi.

- Imtiyozli mikrolizing bo‘yicha xizmatlar kichik biznes subektlariga 3 yil muddatgacha 5 % stavka bo‘yicha eng kam oylik ish haqining 2000 baravarigacha miqdorda ko‘rsatiladi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, mikromoliyalash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to‘g‘risida“gi Qonuni 2006 yilning sentabr oyida amalga kiritildi. Mazkur qonun mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar uchun mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishning yagona qoidalari va umumiy normalarni belgilab berdi. Xususan, mikrokredit eng kam ish haqining 1000 baravari, mikroqarz eng kam ish haqining 100 baravari, mikrolizing esa eng kam ish haqining 2000 baravari miqdoridan oshmaydigan summada berilishi belgilandi.

Shuningdek, mikrokredit tashkilotlarining tashkil etilishi va faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining „Mikrokredit tashkilotlari to‘g‘risida“gi Qonunining qabil qilinganligi mamlakatimizda mikromoliyalash sohasining yanada rivojlanishiga turtki bo‘ldi. SHular bilan birga 2006 yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subektlaridan hisoblangan dehqon xo‘jaliklari va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarga mikromoliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishni kengaytirish maqsadida „SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarni ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PQ-308 (2006 yil 23 martda) sonli Qarorida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar ayniqsa qishloq

aholisini ish bilan ta'minlash va shu asosda oilalar daromadini oshirishning muhim omili sifatida chorva mollari boqayotgan dehqon va fermer xojaliklari sonini ko'paytirish uchun asos bo'ldi.

Mazkur qarorni ijro etish yuzasidan ikkita nizom ishlab chiqildi. Ularda dehqon xo'jaliklari va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga chorvachilikni rivojlantirish uchun tijorat banklari tomonidan o'z resurslari hisobidan va Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan imtiyozli maqsadli mikrokreditlar berish tartiblari belgilanib, unga ko'ra mikrokreditlar 3 yilgacha muddatga eng kam ish haqining 80 baravarigacha bo'lgan miqdorda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasidan yuqori bo'lmagan stavkasi bo'yicha, Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'ari hisobidan beriladigan mikrokreditlar bo'yicha esa qayta moliyalashtirish stavkasining $\frac{1}{4}$ qismiga teng foiz stavka bo'yicha beriladi. Bu mikrokreditlar faqat kam ta'minlangan oilalarga ajratiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining aholi bandligini tez sur'atlarda ta'minlash, iste'mol mollari bozorini to'ldirish borasidagi roli yanada oshdi. Shu bois, bu sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish maqsadida 2008 yil 28 noyabrdagi PF-4058 ga muvofiq tasdiqlangan "Iqtisodiyotning real sektori bazaviy tarmoqlari korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari" Dasturi doirasida bir qator chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, kichik biznes subektlariga aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladigan kreditlar muddatini 12 oydan 18 oygacha uzaytirildi, mazkur soha subektlarini kreditlash hajmini oshirish maqsadida "Mikrokreditbankning ustav kapitali qo'shimcha 72 mlrd. so'mga ko'paytirildi.

Bundan tashqari, respublika ichki iste'mol bozorini mamlakatimizda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat maqsulotlari bilan bekamu-ko'st to'ldirish, asosan qishloq joylarda zamonaviy yuqori unumli texnika va texnologiya bilan jihozlangan qayta ishlovchi ixcham korxonalarni jadal barpo etish, shu asosda yangi ish joylarini shakllantirish, ko'proq odamlarni ish bilan ta'minlash,

ularning daromadlari va farovonlik darajasini oshirish maqsadida „Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to‘ldirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida“ 2009 yil 26 yanvarda PQ-1047 ning qabul qilinishi ham mazkur yo‘nalishda faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlik subektlari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qarorga muvofiq tijorat banklari tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasidan oshmaydigan foiz stavkasi bo‘yicha:

- mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalariga - oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda zarur bo‘lgan texnologiya uskunalari, xom ashyo va materiallar sotib olish qamda tomchilatib sug‘orish tizimlarini xarid qilish uchun;

- fermer xo‘jaliklari, agrofimlar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga - issiqxonalar barpo qilish hamda tomchilatib sug‘orish tizimini tatbiq etish uchun kreditlar berish va lizing xizmatlari ko‘rsatilishi belgilab qo‘yildi.

Shu bilan birga, 2009 yil 28 yanvarda „Mahalliy nooziq-ovqat iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarishni kengaytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida“ PQ-1050 qabul qilindi. Bundan tashqari, 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 bilan tasdiqlangan Dasturda 2011-2015 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini kreditlash hajmini 2,7 barobarga oshirish, tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar berish va nobank kredit tashkilotlari tomonidan mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish xajmini esa 2,8 barobarga oshirish belgilandi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi N PF-4354 Farmoni va “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi alohida ahamiyatga ega.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturiga muvofiq 2011 yildan e‘tiboran, tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun yanada qulay

biznes-muhitni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida ko'plab vazifalar bilan birgalikda tijorat banklari bilan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining munosabatlari, jumladan, kreditlashamaliyoti bi'yicha alohida vazifalar belgilandi:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmini yanada takomillashtirish va soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ularga ajratilayotgan kreditlar, birinchi navbatda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga va texnologik yangilashga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlar hajmini ko'paytirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatda keng ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish, eksport shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonini hamda umuman bojxona ma'muriyatchiligini soddalashtirish va liberallashtirish.

- 2011 yil 1 sentyabrdan kichik biznes subyektlaridan tijorat banklarida milliy valyutada hisob raqami ochganlik uchun to'lov undirishni bekor qilish;

- tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining kelishilgan hajmda kreditlar ajratish haqidagi arizalarini ko'rib chiqish muddatini uch bank kunidan oshmaydigan muddat bilan cheklash;

- xo'jalik subyektlari tomonidan savdo va servis sohasida xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)lar uchun korporativ plastik kartalardan foydalangan holda to'lovlarni amalga oshirishda to'lov terminallari cheklarini birlamchi buxgalterlik hujjatlariga tenglashtirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga bank muassasalariga eng kam ish haqining yigirma barobari miqdorigacha bo'lgan naqd pul tushumini mustaqil topshirish huquqini berish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 11 martdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1501-sonli Qarori va boshqa qator

qarorlarga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmini yanada oshirish, kreditlash shartlarini soddalashtirish, ularga bank xizmatlaridan foydalanish borasida qo‘shimcha imtiyoz va qulayliklar yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda.

Ozbekistonda kichik biznes subyektlari mulk shakllaridan qat’i nazar, mikrofirmalar vakichik korxonalariga bo‘linadi. Ularning xususiyatlariga ko‘ra, cohada ish bilan band bo‘lgan xodimlari soniga ko‘ra tasniflangan. Dastlab ishlab chiqarish tarmoqlarida 10 nafargacha, savdo, xizmat ko‘rsatish va boshqa noishlabchiqarish tarmoqlarida 5 nafargacha ish bilan band bo‘lgan xodimlari bo‘lgan korxonalar mikrofirmalar, o‘rtacha yillik hisobda band bo‘lgan xodimlari soni sanoatda 40 nafargacha, qurilish, qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 nafargacha, ilm-fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, chakana savdo va boshqa noishlab chiqarish sohalarida 10 nafargacha xodimlari bo‘lgan korxonalar kichik korxonalar deb belgilangan. Lekin bu tasnifga vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishlar kiritib borildi.

«Xususiy tadbirkorlikni, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi 2014 yil 7 apreldagi PF-4609-sonli Farmoniga asosan, 2014 yilning 1 iyulidan quyidagilar kichik biznes subyektlari toifasiga kiritildi:

- yakka tadbirkorlar;
- ishlab chiqarish sohasida yiliga o‘rta hisobda yigirma nafardan, xizmat ko‘rsatish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida — o‘n nafardan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida — besh nafardan oshmaydigan ishchi xodimlarga ega bo‘lgan mikrofirmalar;
- quyidagi sohalarida yiliga o‘rta hisobda ish bilan band bo‘lgan:
 - engil, oziq-ovqat hamda qurilish materiallari sanoatida — ikki yuz nafardan;

- metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochsozlik hamda mebel sanoatida — yuz nafardan;

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash, qurilish va boshqa ishlab chiqarish — sanoat sohasida — ellik nafardan;

- ilm-fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari, savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida — yigirma besh nafardan oshmaydigan xodimga ega bo‘lgan kichik korxonalar.

Ko‘rib turganimizdek, kichik biznes subyektlari tasnifida ishlovchilr soni oshirib borilgan. Bu esa kichik biznes faoliyatining kengaytirilishiga, natijada ularning iqtisodiyotdagi o‘rninig yanada oshishiga zamin yaratadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438- sonli Qaroriga asosan 2011-2015 yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib ushbu dasturning 9-bo‘limi aynan “Kichik biznes subyektlarini va xususiy tadbirkorlikni kredit-moliyaviy qo‘llab-quvvatlash” deb nomlanadi. Unda bir qator chora-tadbirlar bilan birgalikda 2011-2015 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmlarini 2,7 barobarga kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish maqsadida xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy mamlakatlar hukumatlarining imtiyozli kredit liniyalari va grantlarini o‘zlashtirish va jalb qilishni faollashtirish, bunda ko‘rsatilgan moliyalash manbalari hisobidan 2011yilda–75 mln. doll., 2012 yilda–90 mln. dollar, 2013 yilda–110 mln. dolllar, 2014 yilda–130 mln. dolllar va 2015 yilda–155 mln. dolllardan kam bo‘lmagan holda moliyalashtirishni ta’minlash vazifalari belgilab berildi. Belgilangan vazifalar ortig‘i bilan bajarildi.

Buning natijasida 2015 yil Yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000-yildagi 31 foizdan 56,7 foizga yetgani yoki

1,8 barobar oshgan. 2015 yil yakunlariga ko'ra ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i mazkur tarmoqda mehnat qilgan.

Oxirgi yillarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yana bir qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2016 yilning 5 oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Farmonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan va ushbu sohada davlat siyosatining sifat jihatidan yangi darajaga o'tishidan dalolat beruvchi chora-tadbirlarga juda katta e'tibor qaratilgan. Shu bilan birgalikda, "kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga aralashuvni tubdan qisqartirish, xuquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishini ta'minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va xuquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik"¹¹ni eng muhim ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan.

Farmonda ko'rsatilishicha, 2017 yilning 1 yanvaridan boshlab tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni

¹¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yilning 5 oktyabrida "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va shbilarmonlikmuhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848-sonli Farmoni ga muvofiq tadbirkorlik subyektlarining huquqbuzarliklarini yanada liberallashtirishga doir imtiyoz va engilliklar belgilab berildi.

Yuqorida ta’kidlab o‘ganimizdek, tijorat banklarining kreditlari kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. SHu sababli, O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Markaziy banki kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 yanvardagi PQ-2746-sonli “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “kichik biznes subyektlarini mikrokreditlashni yanada rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar”¹² belgilab berilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, mazkur sohaning rivoj topishiga, shakllanishiga huquqiy baza yaratildi, ammo shu bilan uni to‘xtatib qo‘yish kerak emas, balki bozor munosabatlarning doimo chuqurlashib borishini, ijtimoiy-iqtisodiy holatning tez o‘zgaruvchanligini hisobga olib, uni kuchli ijtimoiy -iqtisodiy tarafdin huquqiy bazasini takomillashtirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish kerak. Respublikamizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda ularni kuchli xuquqiy bazasini tashkil etish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda muayyan o‘rin egallashi va aholi daromadlarining o‘sishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

1-bob bo‘yicha xulosa

Biz bitiruv malakaviy ishimizning 1 –bobida kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda tijorat banklarining

¹²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 yanvardagi PQ-2746-sonli “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. (766). – B. 151-152.

roli ko‘rib chiqdik. Kichik biznesning YAIM dagi ulushi, unda ishlovchilar soni, yaratilgan ish o‘rinlari ko‘payib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar Dasturining 9-bo‘limi “Kichik biznes subyektlarini va xususiy tadbirkorlikni kredit-moliyaviy qo‘llab-quvvatlash” deb nomlanadi. Unda bir qator chora-tadbirlar bilan birgalikda 2011-2015 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmlarini 2,7 barobarga kengaytirish, ushbu sohani rivojlantirish bilan bo‘g‘liq vazifalar belgilab berilgan edi. Belgilangan vazifalarning bajarilishi natijasida 2015 yil Yalpi ichki mahsulotda kichik biznesning ulushi 56,7 foizga yetgan. 2015 yil yakunlariga ko‘ra ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig‘i mazkur tarmoqda mehnat qilgan.

2017 yil boshiga kichik biznesning mamlakat Yalpi ichki mahsulotidagi hisssasi 56,9% ga yetdi. 2016 yilning o‘zida 32 mingtaga yaqin yoki 2015-yilga nisbatan 18 foizga ko‘p kichik biznes subyektlari tashkil qilindi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda.

Aholining kam ta‘minlangan, lekin iqtisodiy faol qatlamining tadbirkorlik faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lishida, yangidan ish boshlagan tadbirkorlik subyektlarining o‘z faoliyatlarini yo‘lga qo‘yib olishlarida kichik biznesni kreditlash aloxida o‘rin egallaydi. Kichik biznesni subyektlarining kreditlardan keng foydalanishi yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, yangi mahsulotlar va yangi xizmat turlarining paydo bo‘lishiga, kam daromadli uy xo‘jaliklariga moddiy ta‘minotini oshishiga va tadbirkorlikni rivojlanishiga yordam beradi.

Mavzuni o‘rganish jarayonida kichik biznesni kreditlashbo‘yicha huquqiy va me‘yoriy hujjatlarni o‘rganib chiqdik. Respublikamizda kichik biznesni kreditlash bo‘yicha zaruriy huquqiy va me‘yoriy baza shakllangan bo‘lib, u doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda degan xulosaga kelish mumkin.

2-BOB. KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASHNING CHET EL TAJRIBASI VA RESPUBLIKA BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI KREDITLASH AMALIYOTI

2.1. Kichik biznes faoliyatini tashkil etishning xorij tajribasi

Kichik biznes subyektlarini kreditlashning chet el tajribasini yoritishdan avvalkichik biznes faoliyatini tashkil etishning xorij tajribasini o'rganib chiqishni lozim topdik. Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda biznesning vujudga kelishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishidavlat yordami vositasida ta'minlanadi. Ularda bu ishda juda katta ijobiy tajriba to'plangan bo'lib, undan bizning sharoitlarimiz va xususiyatlarimizni hisobga olgan holda foydalanish mumkin. Ko'pgina mamlakatlarda kichik korxonalar faoliyatini tartibga solishga umumiy yondashishlar va asosiy yo'nalishlar xosdir.

Ularga quyidagilar kiradi:

- biznesni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan maxsus qonunlarni qabul qilish;

- kichik korxonalar faoliyatining umumiy va xususiy tomonlarini (masalan, kichik firmalarda boshqaruv usullarini) takomillash-tirishni, biznes bilan shug'ullanishni istayotganlarga moliyaviy yordam ko'rsatishni, biznesni rivojlantirishni ko'zda tutuvchi ma'lum maqsadga qaratilgan davlat rejalarini ishlab chiqish;

- biznesni qo'llab-quvvatlashning tarkibiy-tashkiliy xizmatlari-ni tashkil qilish;

- bizneslarga davlatning moliyaviy yordam ko'rsatishi (Italiyada kichik firmalar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini moliya-lashtirishga katta mablag'lar ajratiladi);

- biznesni kafolatlash va imtiyozli kreditlashtirish firmalarini tashkil qilish, masalan, Angliyada kichik korxonalarni moliyalashtirishni ta'minlovchi maxsus firmalar bor, buning ustiga davlat qarzlarning 70% ni kafolatlaydi;

- kichik korxonalar faoliyatini imtiyozli soliqqa tortishni keng tarqatish, masalan, Fransiyada har yili 10000 ga yaqin korxonalar to'liq yoki qisman soliq to'lashdan ozod qilinadilar.¹³

Kichik korxonalarni tashkil qilish va boshqarish bo'yicha ba'zi bir mamlakatlar tajribasining qisqacha ko'rib chiqamiz.

AQSH 1953 yildayoq butun mamlakat bo'yicha vakillarning keng tarmog'iga ega biznes ishlari bo'yicha ma'muriyat tashkil qilingan bo'lib, uning asosiy yo'nalishi shaxsiy ishni ochish va olib borishda yordam berish, biznesga kreditlar va kafolatlangan qarzlar berishdan iborat. O'sha yili iqtisodiyotning monopolistik sektorini davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi biznes to'g'risidagi qonun qabul qilingan. 1986 yilda kichik korxonalariga yangi texnologiyalar, ilmiy-texnik va tajriba konstruktorlik tashkilotlarining ishlanmalarini topshirish imkoniyatini ta'minlovchi qonun qabul qilingan.

Kichik korxonalariga ko'pchilik yarim hukumat tashkilotlari yordam ko'rsatadilar: xizmatlar savdosi sohasidagi siyosat bo'yicha qo'mita, Prezident xuzuridagi xususiy tadbirkorlik muammolari bo'yicha maxsus komissiya, sanoat raqobatbardoshligi masalalari bo'yicha komissiya va boshqalar. Ko'p sonli jamoatchilik tashkilotlari—savdo palatasi, sanoatchilarning milliy assotsiatsiyasi, savdo, qishloq xo'jaligidagi har xil assotsiatsiyalar, guruhlar biznesni qo'llab-quvvatlashga yordam ko'rsatadilar. AQSHda kichik korxonalar soliq imtiyozlaridan foydalanmaydi, ammo subsidiyalar, dotatsiyalar, moliyaviy kafolatlar bilan qo'llab-quvvatlanadilar.

AQSHda Kichik Biznes Ma'muriyati kichik biznes subyektlarini aniqlashda quyidagi mezonlarni joriy etgan: Sanoatda ishlab chiqarish turidan kelib chiqib, ishchilar soni ko'pi bilan 500 kishidan 1500 kishigacha ruxsat etiladi, ulgurji va chakana savdoda hamda xizmat ko'rsatishda ishchilar soni 100 kishigacha hamda

¹³Qosimova M.S., Xodiev B.YU., Samadov A.N., Muxitdinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. - T.: O'qituvchi, 2009 65-bet.

oxirgi uch yilda yillik savdo va foyda hajmi 4 mlndan 30 mln dollargacha ruxsat etiladi. Qishloq xo'jaligida yillik tushum 0,5 mln dollardan 9 mln dollargacha, sanoat va qurilishda ishchilar soni 500 kishigacha, oxirgi uch yilda esa daromadi biznes turidan kelib chiqqan holda 12 – 28,5 mln dollardan oshib ketmasligi lozim.¹⁴

AQSHda kichik korxonalarini boshqarishga ham aloxida e'tibor qaratiladi. Bunda korxonalar menejerlaridan 8 ta sifatga ega bo'lish talab etiladi. Bu talablarga san'at, teng bo'lish, ilg'or bo'lish, kelishmovchilik-larni echa bilishi, turli qarorlar qabul qilish, axborot bilan ishlash, resurslarni taqsimlash va tadbirkor bo'lish kabilarni kiritish mumkin.

AQSHning kichik biznes sohasida ko'p yillar mobaynida qo'llab kelayotgan qonunlar tizimi mavjud bo'lib, ular Trestlarga qarshi Sherman qonuni, Oziq-ovqat mahsulotlari sifatligi haqidagi qonun, Federal savdo komissiyani ta'sis etish haqidagi qonun, Tovarining aslligi uning o'rami va markasida aks etishi haqidagi qonun, Iste'mol tovarlarining xavfsiz bo'lishligi haqidagi qonun va boshqalardir.

AQSH 1953 yildayoq butun mamlakat bo'yicha vakillarning keng tarmog'iga ega kichik biznes ishlari bo'yicha ma'muriyat tashkil qilingan edi, unda 4 ming xodimlar xizmat qiladi. Bu tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishi shaxsiy ishni ochish va olib borishda yordam berish, kichik biznesga kreditlar va kafolatlangan qarzlarni berishdan iborat.

O'sha yili iqtisodiyotning monopolistik sektorini davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi kichik biznes to'g'risidagi qonun qabul qilingan. 1986 yilda kichik korxonalariga yangi texnologiyalar, ilmiy-texnik va tajriba konstruktorlik tashkilotlarining ishlanmalarini topshirish imkoniyatini ta'minlovchi qonun qabul qilingan.

Kichik korxonalariga ko'pchilik yarim hukumat tashkilotlari yordam ko'rsatadilar: xizmatlar savdosi sohasidagi siyosat bo'yicha qo'mita, Prezident xuzuridagi xususiy tadbirkorlik muammolari bo'yicha max-sus komissiya, sanoat raqobatbardoshligi masalalari bo'yicha komissiya va boshqalar.

¹⁴<http://www.sba.gov/businessop/>

Ko'p sonli jamoatchilik tashkilotlari – savdo palatasi, sanoatchilarning milliy assotsiatsiyasi, savdo, qishloq xo'jaligidagi har xil assotsiatsiyalar, klublar, guruhlar va hokazolar kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga yordam ko'rsatadilar. AQShda kichik korxonalar soliq imtiyozlaridan foydalanmaydi, ammo subsidiyalar, dotatsiyalar, moliyaviy kafolatlar bilan qo'llab-quvvatlanadilar.

Rivojlangan davlatlarda kichik korxonalarni boshqarishda toifa va yo'nalishi bo'yicha ishchi-xodimlarning tavsifi va sifat modellari ishlab chiqiladi. Masalan, Angliyada menedjerga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Samarali boshqarish iste'dodi.
2. Oratorlik, ya'ni so'zamolik iste'dodi.
3. Bo'ysunuvchilar orasida munosabatlarni moslashtirish qobiliyati.
4. Kadrlarni tayyorlash bilimi.
5. O'zini-o'zi baholash iste'dodining mavjudligi.
6. Malakasini oshirish niyatida o'qishi.

Angliyada bo'lajak ishchini ishga olishda u bilan suhbat, imtixon va tekshiruvlar o'tkaziladi. Suhbat eng ko'p tarqalgan usuldir. Suhbat nati-jasida bo'lg'usi ishchining barcha qirralari namoyon bo'ladi. Angliyada kon-kurs komissiyasi mavjud bo'lib, bu komissiyaga rahbar o'rinbosarlaridan biri yoki bo'linma boshliqlari va kadrlar xizmat xodimlari kiritiladi.

Yaponiyada kichik korxonalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab quvvatlashga aloxida e'tibor beriladi. Kichik korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlashda biznes bo'yicha boshqarma, KO'Kni rivojlantirish bo'yicha davlat korporatsiyasi, moliyalashtirish bo'yicha milliy korporatsiya, KO'K assotsiatsiyalarining butun yapon federatsiyasi, KO'K butun yapon markazi va boshqalar faoliyat yuritadilar. Davlat qo'llab-quvvatlashi o'z ichiga quyidagi-larni oladi: imtiyozli soliqqa tortish, jadallashtirilgan amortizatsiya, imti-yozli kreditlashtirish, xodimlarni o'qitishda yordam, bankrotlik holida yordam ko'rsatish, KO'Kning texnik darajasi o'sishini rag'batlantirish. Prefekturalarda harakat qiluvchi 500dan ortiq savdo-sanoat palatalari va ularning filiallari kichik korxonalarga maslahat, moliya, ta'lim yordamini ko'rsatadilar.

Xitoyda ham kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishiga aloxida e'tibor qaratiladi. Bu davlatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadi – ko'p millionli axolisini ish bilan ta'minlab, axoli bandligini oshirish va raqobatbardoshlikning o'sishidir. Xitoyda ishbilarmonlik muxiti juda keng bo'lib, rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilgan har qanday mahsulotni ishlab chiqarishni juda tezlik bilan o'zlashtira oladi. Xitoyda olib borilayotgan soliq va moliya siyosati, tashqi savdo, investitsion siyosat sohalarida islohotlarning chuqurlashuvi kichik korxonalarining tez rivojlanishiga yordam bergan. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi, posyolka sanoati deb nomlangan kichik va xususiy ishlab chiqarish tez rivojlangan. Qurilish materiallari ishlab chiqarishning 70%, tayyor kiyim-kechaklarning 40%, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 80%i biznesning ulushiga to'g'ri keladi. Xitoy qishloqlari Yalpi ijtimoiy mahsulotining 60% posyolka korxonalarining ulushiga to'g'ri keladi. Ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va arzon ish kuchining mavjudligi ularni xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi ob'ektga aylantirgan.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni ta'riflaydigan uchta yondashuvni ajratib ko'rsatsa bo'ladi: miqdor, sifat va kombinasiya. Mikdoriy yondashuv asosida kichik biznes subyektlarini aniqlashda, asosan, ishlovchilar soni, sotish hajmi va aktivlarning balans qiymati kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Shu bilan birga, uchta ko'rsatkichdan bittasini asos qilib ta'riflash amaliyoti keng tarqalgan. Ammo, Yevropa Ittifoqida qabulqilingan yondashuvdan ko'pgina davlatlarda foydalanilmagan va bu yondashuv Auditorlar Sudining tanqidiga uchragan. Auditorlar sudi Yevropa Parlamenti Komissiyasidan "kichik biznes" tushunchasiga mukammalroq tarifni kiritishni talab qildi. Natijada, 1995 yilda Yevropa Ittifokida kichik korxonalarni ta'riflashning yangi ko'rsatkichlari joriy qilindi.

Kichik biznes subyekti deb tasniflash uchun u ishchilar soni mezonini va jadvalda ko'rsatilgan ikkita mezondan bitta talablariga javob berish kerak. Qo'shimcha sifatida u korxonaga mustaqil bo'lishi kerak, ya'ni korxonaga boshqa bitta yoki bir nechta korxonalarining egalik qilishi 25% dan oshmasligi kerak.

**Yevropa Ittifoqida qabul qilingan kichik biznes subyektlarini
aniqlashning miqdoriy mezonlari**

Ko'rsatkichlar	Kichik korxonalar	O'rta korxonalar
Ishchilarning maksimal soni	50	250
Maksimal yillik aylanma (mln. EKYu)	4.0	16.0
Maksimal balans qiymati (mln. EKYu)	2.0	8.0

Yevropa Ittifoqi davlatlarida kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash siyosati o'tkazilganda boshqa ko'rsatkichlardan ham foydalanishlari, ya'ni bu mamlakatlar kichik korxonalarni belgilashda shu mamlakatga mos keladigan ko'rsatkichlarni qo'llashlari mumkin. Yevropa Ittifoqi Komissiyasi firmani kichik biznes subyektiga kiritish uchun quyidagi mezonlarni ishlab chiqqan ishchilar soni 100 dan, xususiy asosiy vositalar hajmi 75 mln EKYu dan, nizom kapitalida yirik firmaning ulushi 33% dan oshmasligi kerak.

Yevropa Ittifoqi Komissiyasi ishchilar soni 9 kishigacha bo'lgan mikrokorxonalarni (shaxsiy korxonalar, oilaviy va fermer xo'jaliklari) va ishchilar soni 10-99 kishigacha ega bo'lgan.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik va o'rta biznes rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini 3-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

3-jadval ma'lumotlaridan ko'runib turibdiki, Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning o'rni yuqori. Kichik va o'rta biznesning YAIMdagi ulushi o'rtacha 50 foiz atrofida, ularning umumiy bandlikdagi ulushi 47-71 foiz ni tashkil qiladi. Shu o'rinda O'zbekistonda har ikkala ko'rsatkich ham rivojlangan mamlakatlarning ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori.

¹⁵X. Shodiyev – „Moliya statistikasi“ o'quv qo'llanmasi. –T.: „IQTISOD- MOLIYA“, 2015. – 127-b.

**Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik va o'rtabiznes
rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari**

Davlatlar	Kichik va o'rtabiznesning YAIMdagi ulushi	Kichik va o'rtabiznesning umumiy bandlik- dagi ulushi	Jami korxonalar tarkibida kichik va o'rtabiznes korxonalarining ulushi
AQSH	52	50.1	97.6
Kanada	43	47	99.8
Yaponiya	51.2	69.5	99.2
Germaniya	57	69.3	99.3
Fransiya	49.8	56.6	97.6
Italiya	55	71	99.2
Buyuk Britaniya	52	55.5	99.1

Umuman, kichik biznesni tashkil etish va qo'llab-quvvatlashning xorij tajribasini o'rganish va ulardan O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida foydalanish imkoniyatlarini belgilash kichik biznesni rivojlantirish uchun shubhasiz foyda keltiradi deb o'ylaymiz.

2.2. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning chet el tajribasi

O'zbekistonda kichik biznesni kreditlash tizimi shakllangan bo'lib, uni rivojlantirishda chet davlatlarning tajribasini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Turli davlatlarda kichik biznesni mikromoliyalash tizimi har xil davrlarda, turli nom bilan shakllangan va asta-sekin rivojlanib borgan.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rtabiznesga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning rivojlangan tarmog'i mavjud bo'lib, bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-kredit, axborot, marketing, o'qitish, eksport qilish va boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Rivojlangan

¹⁶X. Shodiyev – „Moliya statistikasi“ o'quv qo'llanmasi. –T.: „IQTISOD- MOLIYA“, 2015. – 132-b.

mamlakatlardan biri bo'lgan AQSH da kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash holatini o'rganib chiqamiz.

AQSH Kongressi tomonidan 1958 yilda AQSHda "Kichik biznesga investitsiya to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning qabul qilinishi natijasida mamlakatda kichik korxonalariga investitsiyalar yo'naltirish bo'yicha kompaniyalar ochila boshladi. Bunday kompaniyalar faoliyatini nazorat qilish Kichik biznes ma'muriyatiga yuklangan bo'lib, u kichik korxonalariga, investitsiyalar bo'yicha faoliyat boshlayotgan tadbirkorlarga imtiyozli shartlarda kredit berish vazifasini bajargan.

Hozirgi kunda ham AQSHda kichik biznes faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash "Kichik biznes ma'muriyati" hukumat organi orqali amalga oshiriladi. Uning xar yilgi byudjeti 2 mlrd. dollardan ortiq bo'lib, 70 foizidan ko'prog'ini kichik korxonalariga yo'naltiriladi. Uning asosiy maqsadi tadbirkorlik subyektlariga kreditlar va kafolatli qarzlarni olishda yordam berish, bepul axborot xizmatlari ko'rsatish, kreditorlarga kafolatlar berish kabilardan iborat. Kichik biznes ma'muriyati tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy yordam tizimiga asosan o'rta korxonalariga moliyaviy mablag'lar taqdim etishda turli tashkilotlar manfaatdorligini oshirish maqsadida, qarz sarmoyasining 90 foizigacha miqdorida kreditorlarga davlat kafolatlarini beradi, biroq bunda kafolat summasi 750000 AQSH dollaridan oshmasligi lozim.

Hozirgi kunda AQSH da kichik va o'rta biznes masalalari bilan 20 ga yaqin federal muassasalari va vazirliklar shug'ullanadi. Kichik va o'rta biznesni qo'llab quvvatlash bo'yicha 39 dastur ishlayapti, 1100 ta maxsus kichik va o'rta biznes markazlari faoliyat yuritmoqda. Kreditlar, avvalo, yangi korxonalar qurish, ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya xarajatlariga hamda federal buyurtmalarni bajarish uchun xom ashyo va uskunalarni sotib olishga beriladi.

Bundan tashqari, AQSHda kichik biznesni kreditlash uchun 1970 yilda tashkil etilgan Milliy Kredit uyushmalari ma'muriyati ham faoliyat yuritib, bu ma'muriyat AQSH dagi 8 mingga yaqin kredit uyushmalarini o'ziga birlashtirgan. Kredit uyushmalari har bir mijozga xizmat ko'rsatishda alohida e'tibor ko'rsatadi

va yondashuvi bilan birga mijozlarning ushbu institut mulkdori sifatida u bilan uzviy aloqa o'rnatadi.

Shuningdek, AQSHda kichik biznesni kreditlashda Kredit byuolarining ham o'z o'rnini mavjud. Bu erda Kredit byuolari faoliyati ham yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, Amerika Kredit Byuro uyushmasi mamlakatda 36000 tumandagi 600000 korxonaga kredit tarixi to'g'risida ma'lumot beruvchi 2200 byuroni o'zida birlashtirgan. Umuman, kichik va o'rta korxonalarni kreditlash hajmlari bo'yicha AQSH ham Yaponiya, Germaniya, Kanada kabi rivojlangan mamlakatlar qatorida yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Yaponiyada kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlashda kichik biznes bo'yicha boshqarma, KO'Kni rivojlantirish bo'yicha davlat korporatsiyasi, moliyalashtirish bo'yicha milliy korporatsiya, KO'K assotsiatsiyalarining butun yapon federatsiyasi, KO'K butun yapon markazi va boshqalar faoliyat yuritadilar. Bulardan tashqari unga yaqin maxsus banklar KO'Kni kreditlashga xizmat qiladi.

Davlat qo'llab-quvvatlashi o'z ichiga quyidagilarni oladi: imtiyozli soliqqa tortish, jadallashtirilgan amortizatsiya, imtiyozli kredit-lashtirish, xodimlarni o'qitishda yordam, bankrotlik holida yordam ko'rsatish, KO'Kning texnik darajasi o'sishini rag'batlantirish.

Janubiy Koreyada 1995 yilda KO'K mahsuloti eksportining salmog'i mamlakat umumiy eksport hajmining 30%ni tashkil qilgan va 50 mlrd AQSH dollariga yetgan. Bunga katta bank kreditlari yordam bergan. Kredit-pul siyosati shunday qurilganki, tijorat banklari o'z qarzlarning 30% ini KO'Kga berishga majburlar. Mamlakatdagi kichik biznes federatsiyasi, KO'K banki, texnologiyalarni sug'urta qilish federatsiyasi, savdo va sanoat vazirligi KO'Kning rivojlanishiga yordam beradi.

Sanoatni rivojlantirish siyosatining ajralmas qismi sifatida KO'K ning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash siyosati sohasida yirik qonunchilik bazasi tashkil qilingan: KO'K ni rag'batlantirish haqidagi dekret (1966y.), KO'Kning sub-kontraktli ishlarini rag'batlantirish haqidagi qonun (1978y.), faqat KO'K ishlab chiqara-digan tovarlar ro'yxati (1982y.), KO'K o'zaro yordam fondi haqidagi

qoidalar (1984y.), KO‘K boshqaruv barqarorligi va boshqalar. Yordam, birinchi navbatda, yuqori eksport salohiyatiga ega bo‘lgan korxonalar ko‘rsatiladi.

Bu mamlakatda KO‘K ni qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘pgina tashkilotlar mavjud:

- KO‘K uchun golland kengashi;
 - KO‘K masalalari bo‘yicha tadqiqotlar va konsalting;
 - KO‘K uchun siyosatning qirollik federatsiyasi;
 - ijtimoiy biznes tashkilotlari tarmoq xususiyatlari bo‘yicha ish beruvchilar va xodimlarning hamkorligini ta‘minlaydilar;
 - savdo palatasi konsalting xizmatlari ko‘rsatadi;
 - KO‘K instituti ishchi-xizmatchilarni o‘qitish, maslahat berish bilan shug‘ullanadi;
 - o‘qish vaqtida shaxsiy korxonalarini ochgan talabalarga yordam ko‘rsatish uchun «Mini-korxonalar fondi» tashkil qilingan;
 - ikkita Oliy o‘quv yurti KO‘K uchun mutaxassislar tayyorlaydi;
 - kechqurunlari qatnash mumkin bo‘lgan ko‘pgina turli xil kurslar ishlaydi.
- Bularda ishni endi boshlovchilar shaxsiy ishni ochish, biznes-rejalar tuzish, maslahatlar va axborotlar olish maqsadida o‘qishlari mumkin.

Fransiyada tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadi – bandlikning ko‘payishi va raqobatbardoshlikning o‘sishidir. Buning uchun quyidagilar qilinadi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam, axborotlarga kirish, ma‘muriy to‘siqlarni kamaytirish, soliqlarni kamaytirish va boshqalar. Fransiyada KO‘K ni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha har xil tashkilotlar tashkil qilingan:

- KO‘K konfederatsiyasi;
- savdo palatasi;
- hunarmandlik ishlari bo‘yicha palata;
- qishloq xo‘jaligi palatasi;
- investitsion xavf-xatarni sug‘urtalashning fransuz jamiyati;
- biznesni tashkil qilish markazi va boshqalar.

Yaponiyada kichik biznes sohasini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlar o'tgan asrning o'rtalaridan boshlangan bo'lib, dastlab tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilgan. 1950 yilda «Kichik korxonalar kreditlarini sug'urtalash Akti», 1953 yilda esa «Kreditlarni kafolatlash Assotsiatsiyasi Akti» qabul qilingan va Kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash Yaponiya Moliya Korporatsiyasi tashkil etilgan. Bugungi kunga kelib kichik biznes subyektlariga moliyaviy masalalarda ko'maklashish bo'yicha yaxlit tizim shakllangan. Yaponiya Moliya Korporatsiyasi bilan birgalikda Shoko-Chukin banki, Kreditni kafolatlash korporatsiyalari va boshqa moliya muassasalari sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Kichik biznes korxonalarini qo'llab-quvvatlash siyosati Kichik va o'rta korxonalar Agentligi (Small and Medium Enterprise Agency) tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

Kichik biznes sohasiga moliyaviy jihatdan ko'maklashish maqsadida Yaponiya byudjetidan yirik miqdorda mablag' ajratiladi. Bu mablag'lar asosan kichik biznesga ishlab chiqarish sohasi va tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, mahalliy hududlarda tijoriy faoliyatni kuchaytirish va tadbirkorlik subyektlarini yanada jonlantirish maqsadlari uchun yo'naltiriladi.

Kichik biznesni kreditlash amaliyotini MDH davlatlaridan biri bo'lgan Rossiya misolida ko'ramiz. Hozirgi kunda kichik va o'rta biznes Rossiyada iqtisodiyotning muhim sohasi hisoblanadi. Uning asosiy ko'rsatkichlari doimiy o'sish sur'atiga ega bo'lib, ishsizlikning kamaytirishga, bandlikni ta'minlashga, raqobatning rivojlanishiga, davlat byudjetiga soliq tushumlarining oshishiga, aholining turmush darajasining oshishiga xizmat qilmoqda. Rossiyada xar yili o'rtacha kichik va o'rta biznes sohasida firmalar soni 9 foizga ko'payadi.

Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy rivojlanish va savdo vazirligi ma'lumotlariga asosan kichik va o'rta biznes 30 mlrd. dollarlik kreditga extiyoj bor, lekin kichik va o'rta biznes o'z extiyojining 10-15 foizini oladi xolos. Jami berilgan kreditlarning bor yo'g'i 10-12 foizi atrofida kichik biznesga beriladi. Rossiyada kichik va o'rta biznesga berilayotgan kreditlar xajmi juda sekin bo'lsada

oshib borayapti. Bunday kreditlarning o‘shish darajasi 2015 yillarga kelib, oldingi yillarga nisbatan o‘rtacha 15-16 foizni tashkil qilgan.

Rossiyada kichik va o‘rta biznesga berilayotgan kreditlar berishda Sberbank Rossii, Bank «Sankt-Peterburg, Bank «Vozrojdenie», Bank Moskvi, «LOKO-Bank» aloxida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ichida kichik biznes kreditlash xajmi bo‘yicha Sberbank Rossii banki yuqori pog‘onada turadi.

Barcha davlatlarda bo‘lgani kabi Rossiyada ham kichik biznesning rivojlanishidagi asosiy muammolardan biri o‘zining ixtiyorida moliyaviy mablag‘lar etishmayotganligi hisoblanadi. Ushbu muammoni echishda kredit asosiy rolni o‘ynaydi. Kichik biznes subyekti uchun kredit arzon, uzoq muddatli va olish oson bo‘lishi lozim. Rossiyada kichik va o‘rta biznes subyektlariga imtiyozli shartlar asosida kredit berish masalasi tijorat banklari va mahalliy xokimiyat zimmasidadir.

Kichik biznesni kreditlash tizimida mikrokreditning ham aloxida o‘rni bor. Mikrokreditning nomi ko‘rsatib to‘rganidek, “mikro-kredit, o‘z nomi bilan juda kam muddatga, juda kichik summada tezkor ravishda beriladigan kreditdir. Rossiya tajribasiga ko‘ra mikrokredit olish uchun faqat pasport talab qilinadi”.¹⁷ Mikrokreditlar o‘zining summasiga yarasha shu nomga sazovor bo‘lgan. Ilmiy tushuncha sifatida birinchi mikrokreditlar “mikroqarzlarni” ko‘rinishida bo‘lib, dastlab uning miqdori 27 dollarni tashkil qilgan. Mikroqarz oluvchi bo‘lib, bambukdan mebel yasaydigan Bangladeshlik ayol bo‘lib, unga mikroqarz beruvchi bo‘lib o‘zining hamyurti iqtisod fanlari professori chiqqan. Aynan mana shu mikroqarz tufayli professor Muxammed Yunus shunday kichik kredit asosida o‘z biznesini boshlamoqchi bo‘lgan kichik tadbirkor uchun madad bo‘lishi mumkin degan xulosaga kelishiga sabab bo‘lgan. Shu asosda Muxammed Yunus hozirgi kunda butun dunyoda keng tarqalgan mikrokreditlash konsepsiyasini ishlab chiqqan.

Mikrokreditlash rivojlanayotgan davlatlarda juda ommalashgan. Uni tashkil etishda davlat emas, balki nodavlat tashkilotlari asosiy tashabbuskor bo‘lib, xozirgi

¹⁷[http:// master.target.ru/](http://master.target.ru/)

kunda ham ushbu sohada etakchilik qilmoqda. Bunga Indoneziyadagi Rakiyat banki (davlat banki), Grammin-bank Bangladesh (universitet tashabbusi bilan tashkil etilgan), Banko Sol Boliviya (Xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan), Ozarbayjon mikromoliyalash banki misol bo‘ladi.

Mustaqil davlatlar Hamdo‘stligi, Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlaridagi kichik biznesni mikrokreditlash tizimini ko‘rib chiqamiz. Mikrokreditlash ushbu xududlarda 1992 yildan boshlab xalqaro donorlik tashkilotlari tomonidan joriy qilingan bo‘lib, asosiy maqsadi rivojlanayotgan davlatlarda kambag‘allikni kamaytirish va kam ta‘minlangan aholini qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Markaziy hamda Sharqiy Evropa davlatlarida esa Rayffensen an‘anaviy tizimidan foydalanish ommalashgan. MDH va Markaziy hamda Sharqiy Evropa davlatlarida mikrokreditlash quyidagi ommaviy maqsadlarni ko‘zlaydi:

- iqtisodiy jihatdan kambag‘al, ammo faol aholi uchun muqobil moliyaviy xizmat ko‘rsatish;
- tadbirkorlikni boshlash uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;
- mavjud tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- yakka tartibdagi tadbirkorlikni qo‘llash;

MDH va Markaziy hamda Sharqiy Evropa davlatlarida mikromoliyalashtirish bilan 136 ta nodavlat tashkilotlari, 5892 ta Kredit uyushmalari, 14 ta Mikromoliyalashtirish banklari, 33 ta tijorat banklari shug‘ullanishmoqda. Agar ushbu tashkilotlarning xizmat ko‘rsatish bozorlari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, tijorat banklari xizmatlarining 73 foizi, mikromoliyalashtirish banklarining 69 foiz xizmatlari shahar xududida, Kredit uyushmalarining 49 foiz xizmatlari kichik shaxarchalarda ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Nodavlat tashkilotlari esa yuqoridagi moliya institutlaridan farqli ravishda asosiy xizmatlarini qishloq joylarda ko‘rsatishmoqda.

Jahon tajribasida mikrokreditlashda qo‘llaniladigan metodologiya asosan ikkita bo‘lib, ulardan biri yakka tartibda kreditlash va guruh bo‘lib kreditlash metodologiyasidir. Yakka tartibda kreditlash metodologiyasi odatda tijorat banklari tomonidan qo‘llaniladigan usulni o‘zgartirilgan ko‘rinishidir. Olinadigan qarzlar

mol-mulk bilan kafolatlanadi. Mijozlarning kredit tarixi va ularga berilgan tavsiyalar tekshiriladi, qarz berishda ta'minlanayotgan biznesning yashashga qodirligini sinchiklab o'rgangandan so'ng mikrokredit beriladi. Mikromoliyaviy institutlar mijozlar bilan aloqada bo'lishga va munosabatlarni rivojlantirishga xarakat qiladi. Mazkur metodologiyaning odatdagi kreditlashdan farqi unda maslahat berish va o'rgatish kabi vositalarning mavjudligidir.

Guruh bo'lib kreditlash metodologiyasiga ko'ra esa, bank xodimlari tomonidan bajariladigan vazifalar kredit guruhi zimmasiga yuklatiladi, uning shakllanishi mikrokredit tashkiloti xodimining tashabbusiga ko'ra yuz beradi. Guruh mijozlarni o'zi tekshiradi va uning tarkibiga kim kirishi mumkinligini o'zi xal etadi. Guruh a'zolari bir-birining biznesini va kreditni qaytarish imkoniyatlarini baholashadi, kreditlash asta-sekin ko'payuvchi, uncha katta bo'lmagan miqdorda qarz berish yo'li bilan amalga oshiriladi; olingan qarzni qaytarish guruhning boshqa a'zolari tomonidan kafolatlanadi. Qarzni o'tash muddati buzilganda yoki to'lanmasa, guruh to qarzini to'liq to'lamagunicha navbatdagi mikrokreditni olish imkoniyatidan mahrum etiladi. Ba'zi qishloq joylarda ishlovchi mikromoliyaviy institutlarda guruhlariga qarzning to'liq berish modeli qo'llaniladi va guruh qarzni a'zolariga qay tartibda berishni o'zi hal etadi.

Jahon ekspertlarining ta'kidlashicha, guruh bo'lib kreditlash metodologiyasining o'ziga xos bo'lgan kamchilik va yutuqlari bor. Bu metodologiyaning avzulliklari quyidagilar:

1. Ko'lamning kengligi. Garov asosida kafolatlash o'rniga guruh bo'lib kafolatlash prinsipidan foydalanish prinsipidan foydalanish MMilariga o'z ishlarini jamiyatning nisbatan kam ta'minlangan garovga quyadigan narsasi yo'q qatlamlarida tarqatish imkonini beradi.

2. Samarali tekshirish va monitoring. Kredit guruhi o'z a'zolari ustidan bo'lgan nazoratni ta'minlaydi. Guruh a'zolari bir-birini yaxshi tanigani uchun MMI nazoratiga nisbatan bu tekshirish odatda samarali kechadi.

3. Ish yuritish uchun kam sarf-xarajat qilish. Bu guruh kredit berish jarayoni ma'muriy ishlarning bir qismini o'z zimmasiga oladi.

4. Guruh a'zolarining o'zaro bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari. Bu ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi va MMI tarafidan ko'rsatiladigan konsultatsion xizmatga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi.

MDH mamlakatlarida ham mikroreditlash dasturlari mavjud bo'lib, ular boshqa mamlakatlardan farq qiladi. MDHdagi mikroreditlash dasturlari boshqa mamlakatlardagi kabi keng mamlakat bo'yicha qamrab olmagan bo'lsada, ishlash darajasi professional darajaga ko'tarilgan. Bundan tashqari mikroreditlashdan asosiy maqsad ko'pgina mamlakatlarda qashshoqlikni kamaytirish uchun kurashish bo'lsa, MDH mamlakatlarida mikroreditlashni kengaytirishdan asosiy maqsad, kichik biznesni rivojlantirishdan iborat.

Rossiya uchun mikroreditlash kreditlashning boshqa shakllariga nisbatan ancha keyin paydo bo'lgan yangi shakl bo'lib hisoblanadi. Rossiyada mikroreditlar "tezkor kredit" deb ham yuritiladi. Bunday tez "tezkor kredit" juda tez vaqt ichida ortiqcha sarsonliklarsiz rasmiylashtiriladi. "Mikroreditlash orqali banklar va lombardlar bo'lajak qarzdorni pul bilan shu erning o'zida va hoziroq ta'minlashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Lekin Rossiyada mikroreditlashning huquqiy bazasi xanuzgacha yaratilmagan, shuning uchun mikroredit olishda ehtiyotkorlik talab etiladi va mikroredit faqat noilojlikdan foydalanish lozimligi qayd etiladi."¹⁸

Qozog'istonda esa bir vaqtning o'zida bir nechta dasturlar amalga oshirilmoqda. Shulardan eng o'zini oqlagan va yaxshi amalga oshgan dastur bu ACDI/VOCA dasturi hisoblanadi. Bu dasturning asosiy maqsadi - kam ta'minlangan aholi va ayollarni ahvolini yaxshilash maqsadida Qozog'istonda kichik biznesni rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu dastur asosida amalga oshirilayotgan mikroreditlash guruhlarni kreditlash toifasiga kiradi. Ushbu dastur asosida kredit oluvchilar belgilangan mezonlar bo'yicha 5-10 ga bo'linib guruhlarni tashkil qiladilar. Ushbu guruhlardagi har bir mijoz hamma uchun teng javob beradi. Kredit miqdori 100 AQSH dollaridan 3000 AQSH dollarigacha.

¹⁸[http:// master.target.ru/](http://master.target.ru/)


Ushbu dastur guruhlariga olingan mikro kreditlarni 2-4 oylarda qaytarib kattaroq summalarda kredit olish imkonini beradi.

Umuman, o'tish davridagi davlatlarda kichik biznesni kreditlash tizimi nafakat ijtimoiy balki siyosiy xarakterga ega bo'lgan mulkdorlar sinifini yaratishdek muxim vazifalarni bajaradi. Shunday qilib, xalqaro amaliyotda kichik biznesni kreditlash, jumladan, mikro kreditlash nodavlat tashkilotlari, kredit uyushmalari, tijorat va mikromoliyalashtirish banklari tomonidan hamda xalqaro nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilmoqda, ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

2.3. Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash amaliyoti tahlili

Mamlakatimiz tijorat banklarida kreditlash jarayonini tashkil etish «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yilgan talablar to'g'risida»gi Nizom va boshqa meyoriy-xuquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash jarayoni boshqa mijozlarni kreditlash jarayoni bilan bir xil.

Kreditlash jarayoni o'z ichiga bir necha bosqichlarni oladi, bu bosqichlarni quyidagi rasmdan ko'ramiz.



3-rasm. Mijozlarni kreditlash jarayoni¹⁹

¹⁹Muallif tomonidan tuzildi.

Bu bosqichlarga yana kreditdan maqsadli foydalanishi ustidan monitoringni ham qo'shish mumkin. 3-rasmdan ko'rib turganimizdek, mijoz eng avvalo, bankka kredit buyurtmanomasi va biznes reja bilan murojaat etadi. Bank mijozning kredit buyurtmanomasi yoki arizasini ko'rib chikadi. Mijoz bilan bank kreditlash bo'limi inspektori suxbatlashadi. Suhbat davomida mijozga bankni qiziqtiruvchi savollari beriladi. Bank xodimi mijozdan quyidagi hujjatlarni talab qiladi:

- oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi;
- moliyaviy natijalar hahida ma'lumot;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari to'grisida hisobot;
- pul oqimi harakati to'g'risida hisobot;
- mikrofirmaning biznes-rejasi.

Kredit inspektori kichik biznes subyektining kreditni nima maqsadda olayotganligini aniq ko'rsatganligiga va albatta qaytarib berish niyati borligiga to'la ishonch hosil qilishi lozim. Kredit inspektori mijozning xarakteri va uning samimiyligini tekshirish uchun mijozning kredit tarixi, uning reytingi, kafolat beruvchilar kimligi, kreditning qaysi faoliyatga yo'naltirilishi kabilarga e'tiborini qaratishi lozim.

Kredit olish uchun arizani taxlil qilish jarayonida kredit inspektori mijoz kreditdan foydalanishi natijasida olgan daromadi orqali kreditni qaytarish uchun etarli mablag'ga ega bo'ladimi yoki yo'qmi degan savolga ijobiy javob olishi lozim. Ma'lumki, mijoz olgan kreditni qoplash uchun asosan uchta manbaga ega bo'ladi:

- 1.Naqd pul oqimi.
- 2.Aktivlarni sotish va naqd pulga aylantirish
- 3.Qimmatli qog'ozlar yoki majburiyatlar chqarish orqali mablag'larni jalb qilish.

Sanab o'tilgan mablag'lardan har biri kreditni qoplay oladi, lekin banklar ko'proq naqd pul oqimini afzal ko'radilar. CHunki mijoz aktivlarining sotilishi uning balansining holatini yomonlashishiga, chetdan qo'shimcha mablag'jalb

qilishi esa bankning kreditor sifatida mavqeini pasayishiga olib keladi. Mijozning pul mablag‘lari xaqidagi ma’lumotlarga quyidagilar kiradi:

- Mijozning o‘tgan davrdagi dividendlari va sotiilgan maxsulotlar xajmi
- Ko‘zdatutilgannaqd pultushumlarining etarililigi
- Likvid zaxiralarning mavjudligi
- Debitor-kreditor qarzdorliklarining to‘lash muddatlari, tovar moddiy zaxiralarning aylanishi
- Sarmoyaning tuzilishi va leveraj darajasi, ya’ni o‘z sarmoyasi va jalb qilingan mablag‘lardan foydalanganlik samaradorlik ko‘rsatkichlari
- Boshqaruv sifati
- Auditorlik xulosalari va boshqalar.

Kreditlash jarayonida mijozning ta’minlanganlik darajasi masalasida mijoz kreditni qaytarishni ta’minlash uchun etarli sarmoyaga yoki aktivlarga ega ekanligini tekshirishi lozim. Kredit inspektori mijoz aktivlarining xizmat muddati, tuzilishi va axvolini yaxshilab o‘rganishi kerak. Bunda asosiy omil mijozning texnologiyasi bo‘lib, agar ular texnologiya nuqtai nazaridan eskirgan bo‘lsa ularning ta’minlanganlik qobiliyati yuqori bo‘lmaydi, chunki mijoz daromadlari kreditni qaytarish uchun etarli bo‘lmay qolganda bu aktivlarni naqd pulga aylantirish qiyin bo‘ladi. Shu bilan birga kredit inspektori kredit xujjatlarini o‘rganayotganda ijozning tarmoqdagi xolatini, maxsulotning raqobatbardoshligi, ish kuchi bozoridagi sharoit, pulning qadrsizlanishining mijoz balansiga ta’siri, iqtisodiyotdagi va qonunchilikdagi oxirgi o‘zgarishlar kabilarga ham aloxida e’tibor berishi lozim.

Shunday qilib, mijozning hujjatlari o‘rganib chiqiladi, xisobotlari asosida kreditga layoqatlilik ko‘rsatkichlari xisoblab chiqiladi, baxolanadi va taxlil qilinadi. Bu ma’lumotlar o‘rganib chiqilish bilan birga bank tomonidan kreditga layoqatlilikni baxolashda quyidagi sifat jixatlariga ham e’tibor beriladi. Kredit oluvchining reputatsiyasi sinchkovlik bilan tekshiriladi, bunda mijozning kredit tarixi o‘rganib chiqish o‘ta muximdir. Korxonalaraxbarining shaxsiy va ish bilan bog‘liq bo‘lgan xislatlariga katta e’tibor beriladi.

Bank xodimi mijozdan barcha hujjatlarni olganidan keyin firmaning kreditga layokatligini ko'rib chikishga kirishadi. Bank mijozning moliyaviy xolatini baxolashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanadi:

1. Koplash koeffitsenti;
2. Likvidlik koeffitsenti;
3. Muxtoriylik koeffitsenti;
4. Oborot mablaglarning mavjudlik summasi;
5. Oborot mablaglarining aylanishi;
6. Muddati o'tgan ssudalar bo'yicha noto'lovlar;
7. Kartoteka-2 bo'yicha noto'lovlar.


Hisobotlarni va boshqa hujjatlarni o'rganish jarayonida agar mijoz kreditga layoqatli deb topilsa, uning kredit paketi shakllantirib bankning Kredit Komissiyasiga taqdim etiladi. Kredit Komissiyasining ijobiy xulasasi olingandan so'ng, kredit shartnomasi tuziladi va tomonlar o'rtasida imzolanadi.

Kredit inspektori tomonidan mijozga ssuda hisobvarag'ini ochish bo'yicha yozma farmoyish tayyorlanib, bankning buxgalteriya bo'limiga beriladi. Kreditlar hisob-kitob hujjatlarini to'lash orqali beriladi.

Umuman, mamlakatimizda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining o'rni beqiyosdir. Xususan, ularning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi muttasil oshib borib, 2016 yil yakunlari bo'yicha 56,9 foizni tashkil etgani haqida ishimizning avvalgi bobida to'xtalib o'tgan edik. Bunda ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajmining jadal sur'atlarda oshishi ham muhim omil bo'lmoqda.

Kichik biznes loyixalarini moliyalashtirish va ularni amalga oshirishda bank krediti aloxida ahamiyatga ega. Chunki loyihalarni amalga oshirish va rivojlantirishi uchun, birinchi galda, mablag' zarur bo'ladi. Bunday mablag'ga ega bo'lishning asosiy yo'llaridan biri kredit olishdir. Bank krediti orqali ilg'or texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish joriy etiladi, yangidan-yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi, shuningdek yangi korxonalarining barpo etilishiga, yangi ish o'rinlarining ko'payishiga erishiladi.


Kreditlashda bunday ahamiyatli imtiyozlarning belgilanishi mazkur soha vakillari tomonidan kreditga bo'lgan talabning va ayni paytda ularga berilayotgan kredit hajmining yildan-yilga oshib borishiga olib kelmoqda.



4-rasm. Kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar dinamikasi, yil oxiriga (mlrd. so'm)²⁰

2016 yilning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar miqdori 2015 yilga nisbatan 1,3 barobardan ziyodga oshib, qariyb 15,9 trln. so'mni tashkil etdi.

Banklar tomonidan ajratilgan mikrokreditlar hajmi ham mos ravishda oshib borgan. Buni quyidagi rasm orqali ko'ramiz.



5-rasm. Kichik biznes subyektlariga ajratilgan mikrokreditlar hajmi haqida ma'lumot, yil oxiriga (mlrd. so'm)²¹

²⁰www.cbu.uz.sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Kichik biznes subyektlariga ajratilgan mikrokreditlar hajmi 2012-2016 yillar davomida 3.2 barobar ko‘payib 3326 mlrd. so‘mga etgan. Ushbu ko‘rsatkich 2016 yilda 2015 yilga nisbatan 1,3 barobarga ortib, 3,3 trln. so‘mdan ortiqni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlar, jumladan mikrokreditlar xajmi yildan – yilga ortib bormoqda, shu bilan birga Kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi ham o‘shib bormoqda.

4-jadval

Kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, mlrd. so‘mda²²

t/r	Ko‘rsatkichlar	01.01.2015y.	01.01.2016y.	01.01.2017y.
1.	Jami kreditlar	33533.9	42685.2	53378.5
2.	Kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlar	9158	12112	15870
3.	Kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda	27.3	27.7	29.7

Kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlar hajmi 2014-2016 yillarda oshib borib, 2017 yil boshiga 15870 mlrd. so‘mga etdi. Kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi ham yildan yilga ortib borayotganligini kuzatish mumkin. Masalan, 2014 yilda kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 27.3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2017 yilning 1-yanvar holatiga 29.7 foizga etdi. 2014 yildagiga nisbatan 2015 yilda 0.4 foizga ko‘paygan bo‘lsa, 2016 yilda esa 2.0 foizga oshgan.

Kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlar xajmining oshishiga barcha banklar bilan birga «Mikrokreditbank» ATB tomonidan, Tashqi iqtisodiy faoliyat

²¹ www.cbu.uz.sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

²² www.cbu.uz.sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

milliy banki qoshidagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan hamda xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kredit liniyalari hisobidan berilgan kreditlarning oshishi ham ta’sir ko‘rsatdi. Mikrokreditbank» ATB tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 437,6 mlrd. so‘m miqdorida yoki 2015 yilning mos davriga nisbatan 1,2 barobarga ko‘p mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatildi.

Bundan tashqari, mazkur davrda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki qoshidagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi ko‘magida qariyb 2,9 mlrd. dollarlik eksport shartnomalari imzolanib, ular doirasida 470 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan 1,4 mlrd. dollarlik eksport amalga oshirildi. Jamg‘arma tomonidan jami 3 356 ta tadbirkorlik subyektiga o‘z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo‘yicha huquqiy, moliyaviy hamda tashkiliy xizmatlar ko‘rsatildi.

Kichik biznes subyektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kredit liniyalari hisobidan 206,7 mln. AQSH dollari miqdorida kreditlar ajratildi.

5-jadval

Kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarning yo‘nalishlari²³ (mlrd. so‘mda)

t/r	Ko‘rsatkichlar	01.01.2016y.	01.01.2017y.	O‘zgarishi	
				Summa	%da
1.	Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish	1223.0	1 647,0	424.0	34.6
2.	Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirish	277.8	362.1	84.3	30.6

²³ www.cbu.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Hozirgi kunda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohaslariga keng jalb qilish, ularning o'z bizneslarini yo'lga qo'yishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq loyihalarini moliyalashtirishga, shuningdek, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun ham katta miqdorda kreditlar ajratilmoqda.

5-adval ma'lumotlari orqali shuni ko'rish mumkinki, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 2016 yilda 1 647,0 mlrd. so'm, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun 362,1 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Bu kreditlar hajmi 2015 yilga nisbatan mos ravishda 424.0 mlrd. so'mga va 84.3 mlrd. so'mga ko'pdir. Bir yil davomida ushbu yo'nalishlarga berilgan kreditlar hajmi deyarli 30-34 foizga oshgan.

Respublika hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga asosan tijorat banklari tomonidan 2,0 trln. so'm yoki 2015 yilga nisbatan 25 foizga ko'p miqdorda kreditlar, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga 2 752,6 mlrd. so'm, nooziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga 2 993,0 mlrd. so'm miqdorda kreditlar ajratilgan.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan ushbu kreditlar 2016 yilda iqtisodiyotimizning turli sohaslarida 200 mingdan ziyod ish o'rinlari tashkil etishda muhim omil bo'ldi.

6-jadval

ATB Turon banki tomonidan kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarning Jami kredit portfelidagi ulushi²⁴ (mln. so'mda)

Ko'rsatkichlar	01.01.2016 yil		01.01.2017 yil		O'zgarishi	
	summa	ulushi	summa	ulushi	Ssumma	%
Jami kredit portfeli	435.4	100	511.3	100	75.8	117.4
Kichik biznesga barcha manbalardan berilgan kreditlar	206.8	47.5	308.4	60.3	101.6	149.1

²⁴ATB Turon banki hisobotlaridan olingan.

Jadval ma'lumotlari orqali shuni ko'rish mumkinki, ATB Turon banki tomonidan 2016 yilda kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlar jami kredit portfelining 60.3 foizini egallab, uning miqdori 308.4 mln. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan 13-14 foiziga ko'pdir.

Ushbu yo'nalishlarga berilgan kreditlar haqidagi ma'lumotlarni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

7-jadval

ATB Turon banki tomonidan kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarning yo'nalishlari²⁵(mln. so'mda)

Ko'rsatkichlar	01.01.2016 yil		01.01.2017 yil		O'zgarishi	
	summasi	ulushi	summasi	ulushi	ssummasi	%
Kichik biznesga barcha manbalardan berilgan kreditlar	206.8	47.5	308.4	60.3	101.6	149.9
Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish	28.2	6.5	53.3	10.4	25.1	189.2
Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirish	29.6	6.8	49.9	9.76	20.3	168.5
Serviz sohasini rivojlantirish	6.1	1.4	8.6	1.7	2.5	138.9
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga	62.5	14.3	118.1	28.9	14.6	237.0
Nooziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga	34.8	8.1	63.2	12.6	28.4	181.2
Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchiliknu rivojlantirish	3.7	0.9	7.8	1.5	0.6	206.7

ATB Turon banki tomonidan kichik biznes subyektlariga 2016 yil davomida berilgan kreditlari 308.4mln. so'mni tashkil etadi. Shuningdek, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 2016 yilda 53.3 mln. so'm, kasb-hunar

²⁵ATB Turon banki hisobotlaridan olingan.

kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun 49.9mln. soʻm miqdorida kredit mablagʻlari ajratildi.

Respublika hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga asosan ATB Turon banki tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga 118.1 mln. soʻm, nooziq-ovqat isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga 63.2 mln. soʻm miqdorda kreditlar ajratilgan. Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun berilgan kreditlar 1.5 mln. soʻm ni tashkil etadi.

Umuman, ATB Turon banki tomonidan kichik biznes subyektlariga barcha yoʻnalishlar uchun berilgan kreditlarning hajmi ortib borganini kuzatilgan. Bank tomonidan kichik biznes subyektlariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

2-bob boʻyicha xulosa

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi koʻrsatishicha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ular uchun davlat tomonidan qulay iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar yaratilgandagina mumkin boʻladi.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik va oʻrta biznesga xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmaning rivojlangan tarmogʻi mavjud boʻlib, bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼekklarining moliya-kredit, axborot, marketing, oʻqitish, eksport qilish va boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. AQSHda kichik biznesni kreditlash mexanizmini shakllantirishda kichik va oʻrta korxonalarining turli xil manbalardan moliyaviy resurslarga ega boʻlishi va davlat tomonidan yaratilgan qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhit asosiy rol oʻynaydi.

Kredit oluvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan yaka tartibda ishlash, kredit buyurtmalarini oʻrganish va tezkorligini taʼminlash, guruh kafolati asosida kreditlash amaliyotini izchil rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Oxirgi 30 yil ichida jahonda kichik biznesni kreditlash va mikromoliyalash tizimi ancha rivojlandi va tijoratlashdi, ammo shu kungacha kichik biznes tomonidan kreditga boʻlgan talab taklifdan yuqoridir.

3-BOB.KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASHNING CHET EL TAJRIBASIDAN O‘ZBEKISTON BANK AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMONIYATLARI

3.1.Kichik biznes subyektlarini kreditlash bilan bog‘liq muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

O‘zbekistondagi banklar amaliyotida kichik biznes subyektlarini kreditlash bo‘yicha ancha tajriba to‘planmoqda. Ayrim chet el banklari tajribalaridan ham umumli foydalanib kelinmoqda. Shunday bo‘lsada, O‘zbekistonda kichik biznesni kreditlash va mikromoliyalash jarayonining o‘ziga xos muammolari ham mavjud.

Kichik biznes subyektlarini kreditlash xizmatlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish orqali respublikamiz banklari tomonidan kichik biznesni kreditlash va mikrokreditlash amaliyotida bir qator muammolar mavjudligi kuzatildi.

1. Kichik biznesni kreditlash operatsiyalari bo‘yicha kredit riski darajasining yuqorligi. Mikrokreditlar ko‘proq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish, chorvachilik, asalarichilikni rivojlantirish, issiqxonalarini tashkil etish kabi maqsadlarda beriladi. Bularning barchasi riskli yo‘nalish bo‘lib, mavsumiylik, ob-xavo sharoitlarining o‘zgarishi, tirik jon bilan ishlash qiyinligi va boshqalar kreditni qaytarishini qiyinlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, mikrokreditning qaytmasligiga olib keladi.

2. Mikrokredit operatsiyalari daromadlilik darajasining past ekanligi. Banklarning mikrokredit berishga qiziqishlar yuqori emasligi mikrokreditlash operatsiyalarining daromadlilik darajasi bankning boshqa kreditlariga nisbatan daromadlilik darajasidan past ekanligi bilan izohlanadi. Chunki mikrokreditlar bo‘yicha kichik biznes subyektlari va aholini ijtimoiy ximoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasining 50%i miqdorida foizlarni undirish belgilab qo‘yilgan.

3. Kichik biznes subyektlarining balansida yuqori likvidli ta‘minot ob‘ektlarining etishmasligi. Ko‘pincha bank xodimlari yuqori likvidli ta‘minot

bo'lgan ko'chmas mulk, transport vositasini talab qiladilar. Lekin kichik biznes subyektlarining hammasida ham aynan yuqori likvidli ta'minot ob'ektlari mavjud bo'lmashligi mumkin. Shu sababli kichik biznes egalari va yakka tadbirkorlarda ta'minot masalasida doimo muammo mavjud bo'lishini inobatga olib, bir necha jismoniy shaxsning kafolatini qabul qilish amaliyotini keng qo'llash lozim. Agar kredit qaytmasa, bir necha kafillikda turgan shaxsdan birortasining moliyaviy holati yomonlashib kreditni qaytarishga yordam bera olmasa, boshqa kafillardan kreditni undirish mumkin bo'ladi. Chunki bir vaqtning o'zida barcha kafillar kreditni to'lash qobiliyatiga ega bo'lmay qolmaydilar.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlashda kredit ta'minotining etishmasligi muammosi faqat bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda emas, balki rivojlangan AQSH, Yaponiya va Evropa davlatlarida ham mavjud. Ushbu davlatlarda bu muammo Davlat kafolat fondi orqali tijorat banklari kreditlarining 50-80 foizigacha miqdorida kafillik berish bilan o'z echimini topadi.

Kichik biznes subyektlari uchun Davlat kafolat fondini tashkil etishning asosiy maqsadi foyda olish emas, balki bank kreditini olishda garov ta'minotining mavjud bo'lmashligi holatida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda moliyalashni kengaytirishga xizmat qilish bo'ladi.

4. Mijozlarining biznes rejalarini tuzish borasidagi savodxonligining etishmasligi. Mijozlar kredit olish uchun tuzib kelgan biznes rejalarini bir qarashda nazariy jihatdan maqbul va jozibador bo'lishi mumkin, lekin amalda ushbu biznes reja rejalashtirilgan natijani bermasligi, shuningdek, pul oqimlarining kelmay qolishi natijasida kreditni qaytarish imkoni bo'lmaydi. Bank xodimlari tomonidan mijozlar tomonidan tuzib kelingan biznes rejalarini, ular to'liq va etarli darajada tuzilmaganligi sababli ko'pincha qaytariladi.

Shuning uchun, fikrimizcha, mijozlarining biznes rejalarini tuzish borasidagi savodxonligini oshirish lozim. Mijozlarining biznes rejalarini tuzish borasidagi savodxonligini oshirish maqsadida maxsus seminarlar tashkil etish, chunki barcha tadbirkorlarda ham iqtisodiy savodxonlik etarli bo'lmasa, o'z

g'oyalarini biznes rejada to'liq ifoda etolmaydilar. Natijada biznes reja mukammal bo'lmaydi.

5.Kichik biznesni kreditlashda garovga qo'yilgan mulkni rasmiylashtirish va uni sug'urtalash bilan bog'liq harajatlarning kattaligi. Mikrokredit ajratishda garovga qo'yilgan mulkni rasmiylashtirish bilan bog'liq harajatlarning kattaligi tufayli kichik biznes subyektlari kredit olishdan qo'rqib qoladi. Shuning uchun kredit ajratishda garovga qo'yilgan mulkni rasmiylashtirish bilan bog'liq harajatlarni kreditning umumiy summasida aks ettirish amaliyotini to'liq joriy qilish va bu haqda kichik biznes subyektlariga tushuntirish lozim. Amaliyotda garovga qo'yilgan mulkni rasmiylashtirish va sug'urtalash xarajatlari katta bo'lib, tadbirkorlarni moliyaviy jixatdan qiynab qo'yadi.

6.Kichik biznesni kreditlash bo'yicha shartnomalarni tuzish jarayondagi kamchiliklarining mavjudligi. Bunday shartnomalarni tuzish jarayondagi kamchiliklarga barxam berish lozim. Qarzdorlar ko'pincha shartnoma shartlari bilan to'liq tanishmay imzo qo'yadilar, keyinchalik tushunmovchiliklar yuzaga keladi, masalan, komission to'lovlar to'lashlari haqida ko'p kichik biznes subyektlari tushunchaga ega bo'lmaydi. Ular bank bilan kredit uchun to'lanadigan foizlarni bank bilan kelishib oladilar, lekin bir marta to'lanadigan kreditni rasmiylashtirish bo'yicha komission to'lovlar to'lashlari lozimligiga e'tibor bermaydilar.

Shuning uchun kreditni rasmiylashtirish jarayonida bank xodimlari kichik biznes subyektlariga shartnoma bilan to'liq tanishib chiqishlarini tushuntirib, shundan so'ng imzo qo'yishlarini tavsiya qilishlari lozim. Bu ham kichik biznes subyektlarining savodxonligini oshirishga yordam beradi.

7.Bank xodimlarining kichik biznesga berilgan kreditlarva mikrokreditlar bo'yicha monitoring o'tkazishlariga qaramasdan, ularning o'z vaqtida qaytarilmaslik holatlarining, ya'ni muddati o'tgan kreditlarning bank kredit portfelida mavjudligi. Mikrokreditni rasmiylashtirish jarayonida bank xodimlari kichik biznes subyektlariga shartnoma shartlarini o'z vaqtida ikki tomonlama bajarilishining shartligi, uning bank faoliyati va qarzdor uchun ham teng

ahamiyatli ekanligi, kreditlarning qaytarilishini ta'minlash-keyingi kreditlar uchun garov ekanligini tushuntirish, teng sherikchilik munosabatlarini o'rnatish lozim.

8. Banklar tomonidan kreditlash bilan birga mikrocreditlashning muqobil institutlari va metodologiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu sohada ma'lum bir tajriba to'plangan, respublikamizning ayrim mintaqalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo viloyatida turli xalqaro tashkilotlar mablag'i hisobidan kredit va mikrocredit berish amalga oshirilmoqda.

Mazkur tajriba tadbirkorlikni va kichik biznesni bankdan tashqari tizim orqali, xususan, nodavlat tashkilotlari orqali mikrocreditlashning mavjud mexanizmini o'rganish imkonini beradi. Qashqadaryo viloyatida hozirda Fransiyaning ACTED (Texnik Hamkorlik va Taraqqiyot Agentligi), AQSHning UNDP (Birlashgan Millatlar Rivojlantirish Dasturi) kabi nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan aholiga (ayniqsa qishloq joylarda) mikrocreditlar ajratilmoqda. Fransiyaning ACTED (Texnik Hamkorlik va Taraqqiyot Agentligi) faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, tashkilot 6 kishilik va 60 kishilik guruhlariga guruh kafolati asosida mikrocreditlar bermoqda.

9. Jahon bozorlarida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

2013-yili O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida tashkil etilgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur jamg'arma tadbirkorlik subektlariga tovar va xizmatlarni tashqi bozorlarga olib chiqish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatadigan tuzilmadir. Lekin respublikamizning alohida mintaqalariga hali kirib bormagan.

Shuning uchun jamg'armaning ko'rsatayotgan moliyaviy xizmatlari ro'yxatini kengaytirish, mamlakatimiz mintaqalarida jamg'armaning tarkibiy

bo'limlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Buning natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi yanada keng xalq ommasi ichiga kirib boradi.

3.2. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning chet el tajribasidan O'zbekiston bank amaliyotida foydalanish imoniyatlari

Bugungi kunda tijorat banklarining oldiga qo'yilgan eng asosiy vazifa respublikamiz taraqqiyotini belgilovchi sektor - kichik biznes va xususiy tadbirkorlarni yetarlicha moliyaviy resurslar va xizmatlar bilan ta'minlashdir. Kichik biznes axoli zich joylashgan xududlarda ishsizlik muammosini hal qiladi. Shu sababli, bank tizimida kreditlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Respublikamiz Prezidenti tijorat banklari oldiga kichik biznes subyektlarini imtiyozli foiz stavkasi va imtiyozli muddatlarda kreditlashni vazifa qilib quydilar.

Kichik biznes korxonalarini bankdan olgan kreditidan foydalanib, faol rivojlanmoqda, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va turlarini ko'paytirmoqda, ichki iste'mol bozorini zarur tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirmoqda, sog'lom raqobat kuchaymoqda, eng asosiysi dolzarb muammolardan biri aholini ish bilan bandlik darajasini oshirilishi ta'minlamoqda va foyda olmoqda.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, axolining ish bilan band qilishni kengaytirish imkoniyati ko'p jihatdan kichik biznesni rivojlantirishga bog'liq. O'zbekistonda butun mehnatga qobiliyatli aholining 70 foizidan ko'prog'i qishloq joylarida yoki kichik shaxarlar va shaxar tipidagi posyolkalarda yashayotganligini hisobga olsak, kichik biznes mamlakatdagi butun mehnatga qobiliyatli aholining 70-80 foizini qamrab olishi mumkin.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatmoqdaki, kichik biznesni investitsiya mablag'lari bilan ta'minlash uchun samarali moliyaviy infrastruktura shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan faol davlat siyosati olib borilishi zarur. Xorijiy tajribaga muvofiq, kichik biznesni samarali qo'llab-quvvatlash keng vakolatlar, moliyaviy

mablag'lar, butun mamlakat bo'yichafiliallarigaega bo'lgan ixtisoslashtirilgan tashkilot yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash sohasida kompleks chora-tadbirlarni muvofiqlashgan tarzda amalga oshiruvchi, davlat yoki aralash kapital bilan tashkil etiladigan maxsus davlat muassasa yoki tashkiloti AQSHda Kichik biznes ma'muriyati (Small BusinessAdministration, SBA), Yaponiyada Kichik va o'rta korxonalar agentligi(Small and Medium Enterprise Agency), Koreya va Chexiyada kichik biznesni moliyalash davlat korporatsiyasi, Germaniyada davlat kapitali ishtirokidagi ixtisoslashgan kredit muassasasi, Polshada Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha agentlik (PARP), Singapurda Savdo va sanoat vazirligi huzurida tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi (SPRING), Qozog'istonda "Tadbirkorlikni rivojlantirish fondi" aksiyadorlik jamiyati (DAMU), Belorussiyada"Tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash fondi" tashkil etilgan.

Ushbu muassasalar kichik biznes subyektlariga tijorat banklaridan kredit olishda vositachilik vazifasini, kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish, loyihaning barcha bosqichlarida tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi. Buning natijasida biznes rejani ko'rib chiqish muddati qisqarib, tadbirkorlarning ortiqcha xarajatlari sezilarli kamayishiga olib keladi.

Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng samarali shakllaridan biri va bank kreditlarini kichik biznesga jalb etishni oshirishga imkoniyat yaratadigan kafolat berish shakli hisoblanadi. Ko'p mamlakatlarda anchadan beri muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan kafolat fondlari kichik korxonalarga kredit olishi uchun ta'minot taqdim etib, bank va boshqa kredit resurslaridanfaol foydalanishiga sharoit yaratib,kelmoqda. Bu tajriba kichik biznesning amaldagi subyektlarini nafaqat qo'llab-quvvatlamoda, balki yangi korxonalarining paydo bo'lishini rag'batlantirmoqda.

Xususan, AQSHda Kichik biznes ma'muriyatining (SBA) kichik firmalar kreditlari yuzasidan kafolat berish dasturi mavjud bo'lib, u kredit qaytarilishi kafolatlangani uchun banklar kichik biznes subyektlariga kredit berish shartlarini sezilarli darajada engillashtiradi. SHu yo'l bilan tadbirkorlar o'zlariga zarur

moliyaviy mablag'larni qulay shartlarda jalb qiladi va tijorat banklari uchun kreditni qaytarilish riski sezilarli darajada kamaytiriladi.

Kafolat tizimining tashkil etilishi O'zbekistonning etakchi xorijiy davlatlar bilan o'zaro teng bo'lgan manfaatli shartlar asosida ular tomonidan berilgan investitsiyalarning qaytishini yuqori texnologik kafolatlash mexanizmini taklif qilgan holda ishlashini isbotlaydi. Bu esa mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishiga, importning o'rnini bosishga, mamlakat byudjetiga soliq tushumlari ko'payishiga hamda qo'shimcha yangi ish o'rinlarini yaratilishiga olib keladi.

Respublikamizda tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, soha subyektlarining imtiyozli kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, byudjetdan tashqari jamg'armalarning resurslaridan samarali foydalanish maqsadida xorijning ilg'or tajribasini chuqur o'rgangan holda va mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Davlat kafolat fondini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekistonda kichik biznesni kreditlash va mikrocreditlashni yanada rivojlantirish uchun xorij tajribasini o'rganib, mamlakat minalitetiga mos holda amaliyotga tadbiiq etish lozim. Shu o'rinda R.Gilferding mikrocreditlash borasidagi qarashlarini ko'rib o'tamiz. "R.Gilferding kichik biznes subyektlarini banklar tomonidan mikrocreditlash amaliyotini tadqiq qilgan va mikrocreditlashning quyidagi usullariga e'tiborni qaratgan:

1. Kichik biznes subyektlariga banklarning o'z mablag'lari evaziga mikrocreditlar berilishi.

2. "Qisman kafolatlar taqdim qilish "usulini amaliyotga tadbiiq etish."²⁶

Haqiqatda kichik biznes subyektlariga banklarning o'z mablag'lari evaziga mikrocreditlar berilishi ancha ma'qulroq hisoblanadi. Davlat subsidiyalari bevosita kichik biznes korxonalariga to'lanadi. Ushbu usulning ustun jihatlariga

²⁶Raxmonov I., Muxammadjonov A. Kichik biznes subyektlarini mikrocreditlashning nazariy asoslari. TMI. Konferensiya 16 aprel 2016y.

subsidiyalarni to'lash imkoniyati kreditlash muddati oxirida amalga oshirilishi va ishlab chiqaruvchilarni nazorat qilish imkonlari mavjudligi bilan belgilanadi. Umuman olganda, kredit subsidiyalari kredit iste'molchilarining o'zlariga salbiy ta'sir o'tkazadi, ya'ni arzon kreditlarga ega bo'lish ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarishni qayta tashkil etish va samarali ishlab chiqarish tarkibini shakllantirishni rag'batlantirmaydi. Lekin hozirgi kunda respublikamizda davlat subsidiyalari hisobidan mikrokreditlar berish amaliyotda kuzatilmayapti.


R.Gilferding o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlar kichik biznes korxonalarini ro'baro bo'layotgan garov mulki etishmasligi muammosi paydo bo'lgan sharoitda "qisman kafolatlar taqdim qilish" usuli bo'yicha taklifi ham qiziqarli bo'lib, uni amaliyotga tadbiq etish mumkin. Chunki o'tish davrida kichik biznes korxonalariga beriladigan davlat kafolatlari muhim rol o'ynaydi. Ishlab chiqarish xajmining tushishi, er bozorining rivojlanmaganligi agrar sektorda garov muammosini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi va davlat ma'lum maqsadda garov o'rini o'z kafolatlari bilan almashtiradi. Davlat kafolatlarini ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish uchun zarurdir. Ushbu kreditlar banklar uchun anchagina jozibador xizmat bo'lib yuzaga keladi.

Shu o'rinda Xalqaro Nobel mukofotining laureati, prof. Muxammad Yunusning ilmiy qarashlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratish zarur. Buning sababi shundaki, dunyo mamlakatlari ichida mikromoliyalash sohasida yirik muvaffaqiyatlarga erishgan eng nufuzli tashkilot sifatida Bangladeshning Gramin banki e'tirof etiladi. Chunki Gramin bank aynan qashshoqlikka qarshi kurash maqsadida tashkil etilgan va bugungi kunda aholining asosiy qismini mikrokreditlash jarayoniga jalb eta olgan. Shunisi xarakterliki, ushbu bankda muammoli kreditlar muammosi mavjud emas.

Gramin bank taklif qilayotgan va hozirgi kunda rivojlanayotgan davlatlarda keng tarqalib borayotgan ushbu kreditlash usulini chekka tuman va qishloqlarda tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Chunki qishloq va ovullarda aholi bir birini juda yaxshi biladi va guruh bo'yicha kreditlash oson amalga oshiriladi. Guruh kafolati bo'yicha bir-birlariga kafolat berishlari hamda guruh a'zolaridan birotasi

o‘ziga tegishli kreditni qaytarib to‘lay olmagan taqdirda, uning kreditini ham qaytarish bo‘yicha majburiyatini o‘z zimmalariga olishliklaridir. Bunday kreditlar uchun hech qanday garov talab etilmaydi va faqat naqd pulda beriladi. Guruhga 18 yoshdan oshgan iqtisodiy faol, boshqa birovdan qarzi bo‘lmagan shaxslar a‘zo bo‘lishlari mumkin. Bunda aholining juda kam ta‘minlangan qismiga beriladigan mikrokreditlar imtiyozli past foizli stavkalarda, aholining o‘rta qatlamiga nisbatan yuqori foiz stavkalarda berilishi mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida, jumladan ko‘pgina rivojlangan davlatlarda, kreditlash jarayonida maxsus kreditlash muolajasi kreditlash sikli asosida tashkil etiladi. Kreditlash jarayonida kredit tahlilini amalga oshirish uchun maxsus kredit tahlil shakllari yuritilib, ularning hisobi aloxida kredit yig‘ma jildida olib boriladi. Kichik biznesni kreditlash jarayoni quyidagicha kreditlash siklidan iborat:



6-rasm. Mikrokreditlash jarayonining tsikli.

Ushbu kreditlash zanjiridan quyidagi uch holatda chiqib ketiladi:

1. Skrining natijasida mijozning kreditlash uchun to‘g‘ri kelmasligi;
2. Kredit kumitasida mijozga kredit ajratish rad etilganda;
3. Kreditni o‘z vaqtida to‘lamasligi oqibatida keyingi kreditlarni ola olmasligi.

Agar yuqoridagi 3 holat kuzatilmasa kredit memorandumini tayyorlanadi. Mutaxassis tomonidan mijoz skriningi amalga oshirilgandan so'ng salohiyatli mijozlarga kredit buyurtmanomasi beriladi. Mijozga kreditning barcha shartlari (anniutet yoki oddiy kaytarish grafigi, uz vaqtida tulash, foiz stavkasi va boshka shartlar) va tahlil protsedurasi (biznes joyiga va uy xo'jaligiga tashrif buyurish, zaruriyat bo'lganda uchinchi shaxslardan mijoz to'g'risida ma'lumot olish) mutaxassis tomonidan tushuntirilishi kerak. Kredit buyurtmanomasi to'ldirilgandan so'ng mutaxassis mijoz bilan uning biznes joyiga chiqish kunini va vaqtini kelishib oladi.

Kichik biznesda tadbirkor va yuridik shaxslar mikro kredit tahlilining bir biridan fark tomonlari deyarli mavjud emas. Kredit mutaxassis har bir holatda ham yuqoridagi tahlil bilan birga mijozning bank pul aylanmasi tahlilini ham qilishi kerak, alohida balans va pul oqimlari hisobotini tuzadi, hisobraqamidan pul aylanmasini oladi. Yuridik shaxslar tahlilida mutaxassis tomonidan tuzilgan hisobot yuridik shaxsning soliq idoralariga topshirgan hisobotlari bilan solishtiriladi.

Kichik biznesga beriladigan kreditlar tahlilida asosiy e'tibor quyidagi 4 ta muxim omillarga karatiladi:

- Mijozning kreditni kaytarish xoxishi bor yoki yo'qligini aniqlash: bu asosan mijozning reputatsiyasini o'rganish orqali aniqlanadi. Reputatsiyaning yomonligi moliyaviy ko'rsatkichlarning kanchalik yukoriligidan qat'iy nazar kreditni qaytmay qolish holatini keltirib chiqaradi.

- **Risk tahlili:** Risklar ichki va tashqi risklarga bo'linadi. Ichki risklar mijoz biznes faoliyati va oila bilan bog'liq, tashqi risklar esa umum iqtisodiy va siyosiy risklarni o'z ichiga oladi.

- **Moliyaviy tahlil:** mijoz moliyaviy holati, pul oqimlari va moliyaviy hisobotlar asosida tahlil kilinadi.

-**Skrining tahlil:** Kredit berishdan oldin Skrining jadvalibitiruv malakaviy ishning 1- ilovasida berilgan.

Bank ishida kredit faoliyati risk bilan bog'liq bo'lgan asosiy faoliyat turlaridan biridir. Har kandy biznes risk bilan bog'liq bo'ladi. Yaxshi olib borilgan kredit tahlili har bir biznes buyicha ma'lum darajada risklarni aniqlaydi. Kredit Qo'mitasiga taklif etilgan mutaxassis xulosasida risklarning yo'qligi mutaxassis tomonidan biznesni yaxshi o'rganilmaganligini anglatadi. Risk – bumijoz biznes rejalarining amalga oshmasligi oqibatida biznes faoliyatining yomonlashishini anglatadi. Biznes rejalarini amalga oshishga kup omillar ta'sir kiladi. Ularni aniqlash va boshqarish mumkin. Risk tahlilidan ikki maksadga erishiladi. Birinchidan, kredit shartlarini aniqlash maksadiga, ikkinchidan, aniqlangan risklarni boshkarish va nazorat qilish uchun. Kelajakda bulishi mumkin bo'lgan kutilgan risklarni mutaxassis nazorat kilib borishi va kerakli chora tadbir ko'rib borishi mumkin. Lekin kutilmagan risklar esa, mijoz va bankka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Risklarni yuqotishning imkoni yuk, faqat kamaytirish mumkin.

Moliyaviy tahlilida quyidagi koeffitsientlardan foydalaniladi:

Kapitalizatsiya – biznes asosiy vositalarining (AV) qancha qismi xususiy kapital (XK) va uzoq muddatli majburiyatlar (UMM) hisobidan moliyalashtirilganligini ko'rsatadi, ya'ni XK va UMMni AVga nisbatini anglatadi. Bu nisbat 1 ga teng yoki katta bo'lishi kerak. Bu barcha asosiy vositalarining XK va UMM xisobidan moliyalashtirilganini anglatadi. Agar nisbat 1 dan kichik bo'lsa u holda asosiy vositalarining bir qismi qisqa muddatli qarzlar (QMM) ni qaytarish uchun sotilishi kerakligini anglatadi. QMM – mijozning 1 yilgacha bo'lgan bank va tovar etkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlardir. Uzoq muddatli majburiyatlar - 1 yildan yuqori bo'lgan majburiyatlardir.

Likvidlilik – mijoz aylanma mablag'larning qancha qismi KMM hisobidan moliyalashtirilayotganligini anglatadi. Bu nisbat 1,5 dan baland bo'lishi kerak.

Leveradj – QMMva olinayotgan kredit summasini aylanma mablag'larga (joriy aktivlar)ga nisbatini kursatadi. Bu koeffitsient fakat aylanma mablag'lar uchun beriladigan kreditlar tahlilida ishlatilib, mijozning aylanma mablag'larini olinayotgan kredit xisobidan usish darajasini anglatadi. Bu nisbat 0,8 dan 1 gacha bo'lgan oralikda bo'lishi kerak.

Rotatsiya – mijoz aylanma mablaglarining ma’lum bir vaqtda (odatda 1 oyda) necha marotaba aylanganligini kursatadi. Bu ko‘rsatkich tovar xarajatlarini joriy aktivlarga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich xar bir biznes turiga qarab xar xil bo‘lishi mumkin, uni o‘zaro o‘xshash bizneslar bilan solishtirish bilan taqqoslanadi.

Yalpi marja -Yalpi daromad (Yalpi Cash Flow)ni Yalpi xarajatlar (tovar xarajatlar)ga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich mijoz tomonidan tovar va xizmatlarga ko‘yilgan ustamani anglatadi. Sof marja – Sof foyda (Sof Cash Flow)ni Yalpi xarajatga nisbati bulib, mijozning tovar va xizmatlaridan kelgan sof ustamani ifodalaydi.

Qarzga xizmat ko‘rsatish Koeffitsienti (debt servis ratio).Ushbu koeffitsient biznes tahlili va uy xo‘jalik tahlilini qamrab oladi. Bu koefitsient 1,25 dan past bo‘lmasligi lozim.

Mijoz ma’lumotlarini tahlil qilish asosida moliyaviy koeffitsientlar o‘rtacha quyidagicha bo‘lsa mikrokredit berish maqbul bo‘lib hisoblanadi:

8-jadval

Mijoz ma’lumotlarini tahlili natijalari

Kapitalizatsiya	1,35	Kredit bilan karzdorlik darajasi	0,21
Rotatsiya	0,93	Likvidlilik	9,57
Yalpi marja	21,33%	Sof marja	11,87%
Kreditsiz qarzdorlik darajasi	0,03	Leveradj	0,8
Qarzga xizmat ko‘rsatish (debt/servis/ratio)	1,25		

Kredit mutaxassisi kredit va moliyaviy tahlil natijalarini to‘plagan holda filial kredit komissiyasiga yakuniy qaror chiqarish uchun memorandum va kredit taklifini tayyorlaydi.

Shunday qilib, respublikamiz bank amaliyotida yuqorida keltirilgan skrining va risk tahlilini amalga oshirish orqali kreditlash jarayoni olib borilsa, bank

tomonidan mikrokreditlash operatsiyalarining samaradorligi ortadi va kreditning qaytmaslik holatlarining oldi olinadi.

3-bob bo'yicha xulosa

O'zbekistondagi banklar amaliyotida kichik biznes subyektlarini kreditlash bo'yicha tajriba to'plangan bo'lib, bunda xorij tajribasidan ham foydalanilmoqda. Lekin O'zbekistonda kichik biznesni kreditlash va mikromoliyalashda xanuzgacha muammolari mavjud. Bunday muammolarga kichik biznesni kreditlash operatsiyalari bo'yicha kredit riski darajasining yuqorligi, kichik biznes subyektlarining balansida yuqori likvidli ta'minot ob'ektlarining etishmasligi, kichik biznesni kreditlashda garovga qo'yilgan mulkni rasmiylashtirish va uni sug'urtalash bilan bog'liq harajatlarning kattaligi kabi qator muammolarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, kichik biznesni kreditlashda uning kreditga layoqatliligini aniqlashda ilg'or usullarda etarli foydalanilmayapti.

Sanab o'tilgan muammolarni bartaraf etishda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganib, mamlakatimizda kichik biznesni kreditlash amaliyotiga tadbiriq qilish yaxshi samara beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta biznesga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning rivojlangan tarmog'i mavjud. Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatmoqdaki, kichik biznesni investitsiya mablag'lari bilan ta'minlash uchun samarali moliyaviy infrastruktura shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan faol davlat siyosati olib borilishi zarur. Xorijiy tajribaga muvofiq, kichik biznesni samarali qo'llab-quvvatlash keng vakolatlar, moliyaviy mablag'lar, butun mamlakat bo'yichafiliallarigaega bo'lgan ixtisoslashtirilgan tashkilot yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Kichik biznes sohasini moliyalashtirish bo'yicha xorij tajribasi va milliy iqtisodiyotdagi xususiyatlardan kelib chiqib, mazkur masalaning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatini endi boshlagan korxonalar uchun mahsus qo'llab-quvvatlash fondlarini tashkil etish va dasturlarni

joriy etish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, imtiyozli shartlar asosida qarz berish kabi amaliyotlarni qo'llash sohaning yanada rivojlanishiga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bitiruv malakaviy ish mavzusini o'rganish va amaliyot ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida kichik biznesning YAIM dagi ulushi, unda ishlovchilar soni, yaratilgan ish o'rinlari ko'payib borayotganligining guvohi bo'ldik. 2017 yil boshiga kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasi 56,9% ga yetdi. 2016 yilning o'zida 32 mingtaga yaqin yoki 2015-yilga nisbatan 18 foizga ko'p kichik biznes subyektlari tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy ravishda qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Respublikamizda kichik biznesni kreditlash bo'yicha zaruriy huquqiy va me'yoriy baza shakllangan bo'lib, u doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda degan xulosaga kelish mumkin.

Kichik biznes subyektlarining kreditlardan keng foydalanishi yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, yangi mahsulotlar va yangi xizmat turlarining paydo bo'lishiga, kam daromadli uy xo'jaliklarga moddiy ta'minotini oshishiga va tadbirkorlikni rivojlanishiga yordam beradi.

Moliya-bank tizimini izchil isloh qilish sharoitida moliyalashtirishning tijorat manbalari, xususan xalqaro moliya institutlari, tijorat banklari va davlat maqsadli jamg'armalarining kredit liniyalari hisobiga tijorat banklarining kredit resurs bazasini shakllantirishga ko'maklashish ishlari yo'lga qo'yilmoqda.

Kichik biznes kreditlashning nazariy va huquqiy asoslarini, chet el tajribasini o'rganib chiqdik. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ular uchun davlat tomonidan qulay iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar yaratilgandagina mumkin bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta biznesga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning rivojlangan tarmog'i mavjud bo'lib, bu kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik sub'eklarining moliya-kredit, axborot, marketing, o'qitish, eksport qilish va boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

AQSHda kichik biznesni kreditlash mexanizmini shakllantirishda kichik va o'rta korxonalarining turli xil manbalardan moliyaviy resurslarga ega bo'lishi va davlat tomonidan yaratilgan qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhit asosiy rol o'ynaydi.

MDHdagi kichik biznesni mikrokreditlash dasturlari boshqa mamlakatlardagi kabi keng mamlakat bo'yicha qamrab olmagan bo'lsada, ishlash darajasi professional darajaga ko'tarilgan.

Oxirgi 30 yil ichida jahonda kichik biznesni kreditlash va mikromoliyalash tizimi ancha rivojlandi va tijoratlashdi, ammo shu kungacha kichik biznes tomonidan kreditga bo'lgan talab taklifdan yuqoridir.

Kichik biznes sohasini moliyalashtirish bo'yicha xorij tajribasi va milliy iqtisodiyotdagi xususiyatlardan kelib chiqib, mazkur masalaning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatini endi boshlagan korxonalar uchun mahsus qo'llab-quvvatlash fondlarini tashkil etish va dasturlarni joriy etish maqsadga muvafiq bo'ladi.

Shuningdek, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, imtiyozli shartlar asosida kreditlarberish kabi amaliyotlarni qo'llash sohaning yanada rivojlanishiga, kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi ta'minlanishiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

Kichik biznes subyektlarini kreditlash va mikromoliyaviy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash uchun quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Mijozlarining biznes rejalarini tuzish borasidagi savodxonligini oshirish maqsadida maxsus seminarlar tashkil etish, chunki barcha tadbirkorlarda ham iqtisodiy savodxonlik etarli bo'lmasa, o'z g'oyalarini biznes rejada to'liq ifoda etolmaydilar. Natijada biznes reja mukammal bo'lmaydi.

2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridikredit ajratishda garovga qo'yilgan mulkni rasmiylashtirish bilan bog'liq harajatlarni kreditning umumiy summasida aks ettirish amaliyotini to'liq joriy qilish. Amaliyotda garovga

qo'yilgan mulkni sug'urtalash harajatlari katta bo'lib, tadbirkorlarni moliyaviy jixatdan qiynab qo'yadi.

3. Tijorat banklari kichik biznesga kreditlar berishda chet el tajribasidan kelib chiqqan holda, asosiy e'tiborni ko'proq mijozning garov ta'minotiga emas, balki kredit tarixiga qaratishlari lozim, bu esa aholining kam ta'minlangan qatlamlariga ham kreditlar olish imkonini beradi va jamiyatda ishsizlik muammosini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Kredit oluvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan yakka tartibda ishlash, kredit buyurtmalarini o'rganish va tezkorligini ta'minlash, guruh kafolati asosida kreditlash amaliyotini izchil rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

5. AQSH, Yaponiya va Evropa davlatlarida kichik biznes subyektlarini qo'llab - quvvatlash uchun tashkil qilingan Davlat kafolat fondini O'zbekistonda ham tashkil etish. Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Davlat kafolat fondini tashkil etish bilan xorijiy moliya institutlarini kredit mablag'larini o'zlashtirilishi, bank kreditlaridan kengroq foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi.

6. Rivojlangan davlatning amaliyotida keng foydalaniladigan "Skoring va risk" tahlilini amalga oshirish orqali kreditlash jarayonini tashkil etish lozim, bu kichik biznesga berilgan kreditlarning qaytmaslik holatlarining oldini olishga yordam beradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan takliflarning respublikamiz bank amaliyotiga tadbiq etilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorliknibank kreditlari orqaliyanada qo'llab-quvvatlashga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Me’yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2003. 8 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: “O‘zbekiston”, 1995. 21 dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. 25 aprel.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to‘g‘risida”gi Qonuni. 2006 yil 15 sentyabr.
5. “Mikrokredit tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2006 yil 28 iyun.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonuni. 2003 yil 30 avgust.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora – tadbirlarni to‘g‘risida”gi PF-3618-sonli Farmoni. – T.: “O‘zbekiston”, 2005. 7 iyun.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4725-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya va ishbilarmonlik muhitini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

- 10.** O‘zbekiston Respublikasi 2007 yil 18 mayda Yosh oilalarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" PF-3878-son Farmoni.
- 11.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi PF-4848-sonli «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni.
- 12.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 yanvardagi PQ-2746-sonli “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
- 13.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
- 14.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikromoliyaviy xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2007 yil 19 fevraldagi 37-son Qarori.
- 15.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori halqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PQ-1438-sonli Qarori, 2010 yil 26 noyabr.
- 16.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2344-sonli Qarori, 2015 yil 6 may.
- 17.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi kichik va mikromoliyalashni rivojlantirish loyixasini amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida» 2003 yil 11 avgust dagi 348-sonli Qarori
- 18.** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining “Tijorat banklari tomonidan Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun

imtiyozli maqsadli mikrokreditlar berish tartibi to'g'risida" 2012 yil 20 martdagi 2344-sonli Nizom, 2006 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

20. Karimov I.A. "Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida (ikkinchi to'ldirilgan nashr) -T.: O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011 yil, 528 - bet.

21. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz iqtisodiyotimizda olib borilayotgan islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishdir." -T.: - T.: O'zbekiston, 2016 yil, 68 - bet.

22. Mirziyoyev Sh. M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak." - T.: "O'zbekiston" 2017 yil, 104 - bet.

23. Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz." T.: - "O'zbekiston" 2017 yil, 56 - bet.

24. Mirziyoyev Sh. M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi." T.: - "O'zbekiston" 2017 yil, 48 - bet.

25. Mirziyoyev Sh. M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramizi." T.: - "O'zbekiston" 2017 yil, 48 - bet.

3. Darslik va o'quv adabiyotlari

26. Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash. O'zbekiston Banklari Assotsiatsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Bank - moliya akademiyasi. - T.: "Moliya", 2002. - 304 b.

27. Abdullaev YO., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik. -T.: Mehnat. 2000y.

28. Axmadjonov SH.X. Xususiyl sektorni samarali moliyalashtirish masalalari. i.f.n. ilm.dar.olish uchun yozil. diss. avtoreferat. T.: TMI. 2007y.

29. Beloglazova G.N, Krolivetskaya L.P. Bankovskoe delo. - M.: "Finansy i statistika", 2006. - 590 b.

30. Mullajonov F. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'n yilligiga bag'ishlanadi. – T.: "O'zbekiston", 2011. – 296 b.
31. Otero M. Elizabet R. "Finansovye uslugi mikro-predpriyatiyam: printsipy i organizatsii" The New World of Microenterprise Finance, 2001y.
32. G'ulomov G'. Tadbirkorlik va kichik biznes.-Toshkent.: Sharq .2002y 145-b.
33. G'ulomov S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish. -Toshkent.: Fan va texnologiyalar. 2005y 215-bet.
34. Yunus Muxammad, Joli Alan. Sozdavaya mir bez bednosti. Sotsialnyy biznes va buduyee kapitalizma. – M.: Alpina Pablisher, 2009. – S. 90.
35. Joraev A. "Mikromoliyalash-moliyalashning yangi manbai". –T.: 2004y.
36. Raxmonov I., Muxammadjonov A. Kichik biznes subyektlarini mikrokreditlashning nazariy asoslari. TMI. Konferensiya 16 aprel 2016y.

Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

37. Mullajonov F. O'zbekiston bank tizimi: moliyaviy barqarorlik va iqtisodiyotni modernizatsiyalash yo'lida. // Bozor, pul va kredit. – 2011. - №1. 6–12 b.
38. B.Akromov Tadbirkorlik subyektlari mahsulotlari eksportiga ko'mak.// Bozor, pul va kredit. – 2016. - № 4. 8–13 b.
39. Yu.Zokirova. Banklarning kichik biznesga ko'magi katta samara bermoqda. Bank axborotnomasi. 2016 y.19 may №20
40. "Turonbank" ATBning yillik hisobot ma'lumotlari.

Internet saytlari:

41. www.lex.uz(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami)
42. www.cbu.uz (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
43. www.finance.uz(Moliyaviy-iqtisodiy tahlil portali)
44. www.ahbor.uz(Ahbor-Reyting reyting agentligi)
45. www.allbest.ru(Referatlarning global tarmog'i)
46. [http:// master.target.ru/](http://master.target.ru/)

Kredit berishdan oldin Skrining jadvali

1	Korxonani/tadbirkor nomi Asosiy adresi Telefon nomerlari (ish va mobil) Korxonona ta'rischisi va raxbarining nomi	- - - -
2	Biznesfaoliyatturi: Ishlabchikarish, Savdo, Xizmatkursatish, Kishloqxujaligi. (qisqa va lunda)	-
3	Rasmiy / norasmiy biznesni boshlagan vaqti (sana)	
4	Bankning kredit berishi xaqida kimdan bildi	
5	Hisob raqam to'g'risida ma'lumotlar (Bankda xisobrakam ochganligi, kaysi bankning mijozlari to'g'risida ma'lumotlar, solik vaboshka majburi tulovlardan karzdorligi k-2)	
6	Bir oylik naqdpul topshirish xajmi va nakd pulga bo'lgan talab xajmi.	
7	Korxonani/tadbirkorlarga aloqador/ daxldorlar nomi.	
8	Asosiy mol etkazib beruvchilar	-
9	Asosiy mijozlar	
10	Mijozni reputatsiyasi (kamida mijozni yaxshi tanidigan 2 ta odamni nomi kursatish kerak)	-
11	Jami Aktivlar summasi: (kuchmas mulk/avtomashina/dastgox/boshkalar) (pul mablagi/debitor/maxsulot/boshkalar)	-
11	Jami Passivlar summasi:	-
12	Urtacha bir oylik sotish xajmi (shu jumladan urtacha bir oylik bank aylanmasi)	-
13	Urtacha bir oylik sof foyda	
14	Bir oyda kancha kredit tulovni kiyinchiliksiz tulash imkoniyat mavjud.	-
15	Kredit olishdan maksadi nima?	-
16	Loyixani umumiy qiymati (xarajati)	--
17	Kredit (summasi / muddati / foiz stavkasi)	-
18	Garov ta'minoti nomi va bozor baxosi:	-
19	Bankdan olgan kredit karzdorligi summasi	

